

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
JADIDSHUNOSLIK ILMIY-TADQIQOT MARKAZI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**“MAHMUD XO‘JA BEHBUDIY
ILMIY-ADABIY MEROSINI O‘RGANISHNING
DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI
DAVRA SUHBATI MATERIALLARI**



Toshkent – 2025

UO‘K: 281.512.133

KBK: 83.3 (5 Uzb)

M – 43

“Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusida o‘tkazilgan davra suhbat materiallari. – T., TDSHU, 2025. - 75 b.

Mas’ul muharrir: Gulchehra Rixsiyeva

Loyiha muallifi va to‘plovchi: Rustam Sharipov

Ushbu to‘plamdan 2025-yil 6-may kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda “Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusida o‘tkazilgan davra suhbat materiallari, maqola va ilmiy axborotlar o‘rin olgan. Ushbu tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan chora-tadbirlar doirasida o‘tkazilgan bo‘lib, buyuk mutafakkirning hayoti va ijodiga doir hali o‘rganilmagan dolzarb masalalar ilmiy tadqiqi va tahliliga bag‘ishlandi.

Tahrir hay’ati:

Gulchehra Rixsiyeva
Shuhrat Rizayev
Minhojiddin Mirzo
Bahodir Karimov
Qudratilla Omonov
Durbek Sayfullayev
Hulkar Mirzaahmedova
Samida Mustafayeva
Rustam Sharipov

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor Xayrulla Hamidov
filologiya fanlari doktori, dotsent Hulkar Hamroyeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining
2025-yil 3-maydagi 9-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
REKTORI PROFESSOR GULCHEHRA SHAVKATOVNA
RIXSIYEVANING KIRISH SO‘ZI

Bugun mamlakatimizning eng yetuk jadidshunos olimlarini sharqshunoslik ilmining markazi bo‘lgan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ko‘rishdan behad xursandmiz.

Bizning bugungi suhbatimiz Turkiston jadidlik harakatining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o‘rganishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan.

Ushbu masalaning ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 27- dekabrda Qarorida to‘la-to‘kis ochib berilgan.

Xalqimizda “Haqiqat bukiladi, ammo sinmaydi” degan naql bor. Mamlakatimiz milliy mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyingida tarixiy adolat qaror topdi. Bugun biz jadid bobolarimizning hayoti va ilmiy-adabiy merosiga munosabat tubdan o‘zgarganining guvohi bo‘lib turibmiz. Ushbu tarixiy hodisaning mazmun-mohiyati muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarida ochib berilganligini ko‘rishimiz mumkin: “O‘z zamonasining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma‘rifat tarqatish, ta‘lim - tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Biz ma‘rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o‘rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”.

Darhaqiqat, Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik

harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga boshqosh bo'ldi. Mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, «Samarqand» gazetasi hamda «Oyina» jurnaliga asos soldi. 1914-yilda «Turon» teatrida sahnalashtirilgan «Padarkush» pesasi orqali o'lkamizda teatr san'atining ta'mal toshini qo'ydi. Afsuski, atoqli adib va jamoat arbobi bo'lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo'ldi.

Bugun nomi tarix sahifalarida zarhal xarflar bilan bitilgan ushbu tabarruk zotning faoliyatini, boy adabiy va ilmiy-madaniy merosini tadqiq etish dolzarb bo'lib qolayotgan bir vaqtda oliygohimizda mamlakatning yetakchi jadidshunos olimlari ishtirokida "Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida bo'lib o'tayotgan davra suhbatini alohida ahamiyat kasb etadi.

Turkiston jadidchilik harakati va jadid adabiyotining yirik vakili bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy Abdurauf Fitrat Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Is'hoqxon Ibrat va boshqa ko'plab jadid bobolarimiz bilan bir safda turib, xalqimiz erki va mamlakatimiz mustaqilligi yo'lida o'z jonini fido etgan siymo sifatida har birimizning qalbimizdan o'rin olgan.

Shuxrat RIZAYEV,

*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
huzuridagi Kinematografiya agentligi
bosh direktori, professor.*

"PADARKUSH" PESASI VA SAMARQANDDA TEATRCHILIK HARAKATI

1911-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush yoxud o'qumagan bolaning holi" nomli "3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojia"sini yozadi. Asarni chop qilish xususidagi urinishlar ikki yilgacha muvaffaqiyatsiz kechadi. Faqat pesani 1812-yili rus-fransuz muhorabasining Borodino maydonidagi ruslar g'alabasi bilan yakunlanishi 100 yilligiga bag'ishlab, Tiflisdagi senzorga yuborilishi nashr uchun imkon beradi. "Matbuot ishlari Tiflis qo'mitasi senzori ruxsati bilan Kavkaz o'lkasi sahnalarida qo'yish mumkin" degan 1913-yil 23-mart 19940-son qaroriga ko'ra, asar 1913-yil Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi.

"Padarkush"ning nashrdan chiqishi tom ma'noda o'zbek milliy teatrining tug'ilishini belgiladi. Shu yilning o'zidayoq Samarqandda Behbudiy, Toshkentda Munavvar qori va Abdulla Avloniy rahbarligida asarni sahnalashtirish harakatlari boshlanadi. "Oyina" yozadi: "Samarqandning o'zbek va tatar yosh va taraqqiyparvarlari bir bo'lib, o'zbekcha "Padarkush" va tatarcha - "Oldaduk ham oldanduk" asarlarini Samarqand qiroatxonai islomiyasi naf'ig'a 1914-yil 15-yanvar oqshominda Samarqandda qo'ymoqchi bo'ldilar va ham ushbu g'ayratli o'zbek va tatarlar birlashib, Ho'qand va Buxoro va o'zga Turkiston shaharlarida milliy tiyotrlar ko'rsatmoqchidurlarki, niyat va g'ayratlari shoyoni shukronadur. Idoraga kelgan maktublarga qaraganda, Ho'qand va Toshkanda ham "Padarkush" fojiasini sahnada qo'ymoq uchun mashq qilmoqda emishlar. Agarda g'ayratlik yoshlar milliy tiyotrg'a rivoj bersalar, yana boshqa asarlarda tartib va nashr qilinur". Shu kichkinagina xabardan bir kancha e'tiborli ma'lumotlar jonlanadi. Birinchidan, xabar voqea sodir bo'lmasidan mushtariylarni muhim bir madaniy tadbirg'a taraddudlantirmoqda. Ikkinchidan, spektakl namoyishi kunini aniq ma'lum qilmoqda. Uchinchidan, yuqorida aytgan fikrimiz dalili o'laroq, Samarqandda tatarlarning mustaqil teatr truppasi borligidan ogoh etmoqda (maxsus tatarcha spektakl qo'yilishi) va milliy havaskorlar bilan ilk pallalardanoq

hamkorlik qilayotganliklari anglashilmoqda. To'rtinchidan, "Padarkush"ni Samarqand aholisiga hali ko'rsatib ulgurmasdanoq yirik shaharlarda gastrol o'tkazishni rejalashtirmoqdaki, maqsad mablag' bilan birga yangi san'at turini Turkiston bo'ylab tashviq etmoq, "g'ayratlik yoshlar"ni milliy teatrg'a rivoj berishlari uchun da'vat qilmoqdir. Beshinchidan, "Ho'qand va Toshkanda teatr truppalar tashkil bo'lib, ular ham "Padarkush"ni sahnalashtirish uchun mashq qilayotganlari ma'lum bo'lmoqda. Oltinchidan, spektakldan tushadigan mablag'ni "Samarqand qiroatxonai islomiyasi naf'ig'a" bag'ishlash ko'zda tutilmoqda.

Demak, "Padarkush" pesasining e'lon qilinishi bu Behbudiy yoki Samarqand shahri ziyolilari uchun ahamiyatli bir hodisa bo'lmay, butun Turkistonda ijtimoiy-madaniy hayotning yanada jonlanmog'i uchun, teatr havaskorlari negizida yangi-yangi ma'rifatchi jamoalar maydonga kelishi uchun turtki bo'lgan.

"Padarkush" ilk bor havaskorlar tomonidan 1914-yil 15-yanvar kuni Samarqandning Yangi shahar qismida namoyish etiladi. Shu munosabat bilan "Oyina" majallasining 1914-yil 25-yanvar 14-sonida "Turkistonda birinchi milliy teatr" hamda "Padarkush" ketidan tatar truppasi qo'ygan "Oldaduk ham oldanduk" nomli tatarcha spektakl haqida 1-fevral 15-sonida "Samarqandda teatr" nomli davomli axborot-taqrizlar e'lon qilinadi. Unda "Padarkush" fojiasining "nihoyatda yaxshi amalga qo'yilgani" aytilib, teatr-ibratxonaga minglab xalq "hujum" qilgani, 320 o'rinlik teatr zaliga yana ellikta qo'shimcha joy qilinib, biletlar baland narxlarda avvaldan sotilgani bayon qilinadi. Bundan tashqari, yana ma'lum bo'lishicha, uch-to'rt yuz kishi qaytib ketishga majbur bo'lgan. Ba'zilar o'z biletlarini ikki baravar qimmatiga sotib, foydalanib qolganlar, ayrimlar esa uch so'm berib, tik turmoqqa ham rozi bo'lgan, ammo shunda ham bir parcha yer yo'qligi, oxir-oqibat teatr ma'murlari xalqdan uzr so'rab, "Padarkush"ni yana yaqin kunlarda Eski shaharda maktablar foydasi uchun qo'yilishi va biletlar bahosi arzonlashtirilib sotilishiga va'da bergan. Mazkur tafsilotlar spektaklning ulkan voqea bo'lganiga yana bir dalildir.

Xabarda asarni sahnalashtiruvchi rejissyor haqida ma'lumot berilmaydi. Lekin jadid teatri tarixini birinchilardan bo'lib keng tahlil etgan Miyon Buzruk Solihovning yozishicha, "Ozarbayjonli Aliasqar Asqarovning sahnani tartibga solishda ta'siri bo'lgan. Hatto uning rejissyorlik vazifasini bajarganini professor Abdulla Avloniy so'zlagan

edi. Ikkinchi bir xabarga ko'ra, rejissyorlikni Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi qilgan emush".

Spektakldagi rollarini Abdusalom Abdulrahim o'g'li (Boy), Abbos (Xayrulla), Mardonqul Shomuhammad o'g'li (Domla), Yozdonqul Shohmuhammad (Boyvuchcha Toshtemir), Mirzo No'mon mulla Fozil mufti o'g'li (Ziyoli), Rahimqul Muhammad Solih o'g'li, Mirhoshim Mirrahim o'g'li, Muhiddin Jo'raboy o'g'li (mayxonadagi bo'z bolalar, yigitlar), Muhammad Aminjon Niyoziy (boyning birodari-ukasi), Abdulla Badriddin o'g'li (boy xotini), tatar aktyorlaridan Ahmadjon Shamsuddinov (Pristav)lar ijro etgan. Tanaffus vaqtlarida esa Samarqandning mashhur hofizlaridan Hoji Abdulaziz qo'shiqlar kuylab turgan. Axborotning taqriz xarakterida ekani shundan ma'lumki, unda har bir parda haqida alohida ma'lumot berilib, ijro va voqealar oqimiga muayyan munosabat bildirib boriladi. Oralatib spektaklda musulmonlar qatori rus, yahudiy tomoshabinlari ham qatnashib, tahsin aytganlari, olqishlaganlari, teatr ma'muriyatining 20 yildan beri bunday voqea bo'lmaganini "ta'rif etgan"lari qayd qilinadi. Buning sababini esa teatrdagi "o'quydurog'on abyotlari nomunosib" bo'lib kelganida, deb ko'rsatadi. Umuman, "Padarkush"ning namoyishi madaniy hayotdagi katta voqea ekani e'tirof etilib, maqolaning 15-sonidagi "baqiya"sida tatar havaskorlari spektakliga munosabat bildirilgan. Tatarcha spektaklning yengil kulgu-komediya ekani, ijrochilar nutqining tezligi va ruscha so'zlar tez-tez ishlatilishi bir oz tanqid ham qilinadi. Taqriz so'ngrog'ida "Padarkush"ning, tatarlar spektakliga qaraganda, ijro madaniyati jihatidan ham yuksak bo'lgani ruslar tomonidan tan olingani qayd etiladiki; shu guvohliklarning o'zi o'zbek milliy teatri shakllanish pallasidayoq ba'zi professional xususiyatlar namoyon qila olganiga ishonchli dalildir.

"Padarkush"ning ilk muvaffaqiyati butun Turkistonga yoyiladi. Ketma-ket barcha yirik shaharlarda sahnalashtiriladi. Ayrimlarida yerli yoshlarning o'z kuchlari bilan mustaqil holda, ba'zi shaharlarda esa Samarqand mushaxislari tomonidan yoki ular bilan joylardagi havaskorlarning hamkorligida o'ynaladi. Bu haqdagi xabarlar "Oyina"ning 1914 yi-gi sonlarida muntazam berib boriladi.

"Padarkush"ning ilk sahna muvaffaqiyati Samarqand teatr havaskorlarining ijodiy jipslashuvi va truppa shaklida o'z faoliyatlarini yana rivojlantirishlari uchun madad berdi. Truppaning

Turkiston shaharlaridagi gastrollari ham ularni teatrchilik bilan muntazam shug'ullanishga da'vat qilmoqda edi.

1914-yil 15-yanvar tomoshasidan keyin Samarqand aholisining tomoshaxonaga kirolmay, teatr ma'murlari va'dasi bilan qaytib ketanlarini aytib o'tgan edik. Ana shu va'da va tomoshabinlarning talabi bilan yoshlar yana g'ayrat ko'rsatib, "Padarkush"ni ikkinchi qayta sahnalashtiradilar. Bu xaqda "Oyina" jurnali 17-may 30-sonida axborot bosadi. Ma'lum bo'lishicha, bu spektakl yana aynan o'sha aktyorlar ijrosida o'ynalgan. Ammo bu safar rejissyorlikni Mulla Orif Abulrahimzoda bajargan.

Demak, 1914-yilning may oylariga kelib, Samarqandda muntazam truppa mavjud edi. Ammo bu muntazamlikni nisbiy ma'noda (bir martagina spektakl qilish uchun jamlanib, so'ng tarqalib ketadigan muvaqqat jamoalar ham bo'lardi) tushunmoq kerak. Chunki spektakllar qo'yish va aktyorlarni doimiy ish haqi bilan ta'min etish uchun hech qanday moddiy baza mavjud emas edi. Aksincha, spektakllarning o'zi ma'rifiy muassasa va tadbirlarni mablag' bilan ta'minlovchi asosiy manbalardan biri edi. Shuning uchun aktyorlar o'zlarining asosiy kasb-korlaridan bo'sh paytlaridagina teatr bilan mashg'ul bo'lardilar. Masalan, Abdulla Badriy matbaada harf teruvchilik, Xoji Mu'in muallimlik, Hoshimqul baqqolchilik, Rabbimqul mashinachi-tikuvchi, Abdusalom boyvachcha rang-furushlik, Mardonqul turli shirkatlarda kommersantlik, Akobir Shomansurov esa savdogarlik bilan tirikchiliklarini yurgizardilar. Ular spektakldan tushgan daromaddan ham biror ulush olmas edilar.

"Padarkush"ning 7-maydagi ikkinchi namoyishi haqidagi habarda yig'ilgan mablag' va uning "masorifi" xususida batafsil hisobot keltiriladi. Spektaklga biletlar sotilishidan 384 so'm 50 tiyin yig'ilib, shundan 184 so'm 50 tiyini sarf-harajatga: rekvizit va boshqa spektakl tashkiliy unsurlari uchun ketgan. Qolgan 200 so'm foydaning esa 110 so'mi maktab islohiga, 35 so'm Jomboyda Bozoramin O'rinxo'ja ta'sis etgan va muallim mulla Komil idorasidati maktabga, 15 so'm Bog'ishamol maktabiga, 15 so'm Buxoriy qishloqdagi Mulla Jo'raboy maktabiga, "Podshoh(lik) gorodskoy uchilisha" maktabidagi musulmon o'quvchilarga 25 so'm, 35 so'm esa muallim mulla Abdulqodir maktabiga ajratilgan. Ko'rinadiki, daromadning so'nggi tiyinigacha hatto oshig'i bilan faqat va faqat ma'rifiy ishlarga sarf bo'lgan. Demak, Turkistondagi ilk teatr truppalarini, shu jumladan, Samarqand truppasini ham hozirgi davlat ta'minotidagi truppalar kabi

tasavvur etmaslik kerak. Bu ko'ngilli yoshlarning ishonchli aqidalari yuzasidan o'z halovatlaridan kechib amalga oshirgan sa'y-harakatlari, ovrupocha teatr san'atini targ'ib etish yo'lidagi intilishlari birlashtirgan ijodiy-ma'rifiy jamoalar edi.

Samarqand truppasining nisbatan doimiy, to'laqonli ish yuritishi uchun tez-tez yig'ilib turishiga monelik qilgan sabablardan yana biri milliy dramaturgiyaning sust rivojlanishi bilan bog'liq. "Padarkush" sahnada qo'yilganidan so'ng deyarli yil davomida yangi o'zbek milliy pesasi yaratilmadi. Truppa shunda ham tamomila tarqalib ketmay, ba'zi-ba'zida mustaqil, ba'zan esa tatar yo ozarbayjon truppalari bilan birgalikda tarjima spektakllar ko'rsatib turdi. "Oyina"ning 1914-yil 41-sonida 11-avgust kuni Samarqandning Podshohlik chorbog'idagi teatrxonada musulmon maktablari va urushda majruh bo'lgan askarlar foydasi uchun musulmon artistlari "Dahotalar qurboni" fojiasi hamda "Qizlar shunday qiziq aytalar" va "Adabiyot kechasida janjal" komediyalari namoyish etilishi "musulmon artistlari hay'ati" nomidan muallim 3.Muzaffariy imzosi bilan xabar qilinadi. Bizningcha, bu asosan mahalliy tatar truppalarning yerli yoshlar bilan birgalikdagi spektakllari bo'lib, Samarqand milliy truppaning faoliyati davom etayotganidan shahodatdir. Bu paytda shaharda "Musulmon artistlari hay'ati"ning ham tashkil topgani teatrchilik ishlarining ancha rivojlanib borganini anglatadi.

Darhaqiqat, teatr harakati 1914-yil o'rtalariga kelib Samarqand ancha jonlanib qoldi. "Padarkush"ning shu yerning o'zida ikki marotaba sahnalashtirilishi mahalliy yoshlarni yana yangi-yangi milliy pesalar bilan harakatini taraqqiy toptirish ishlariga yo'naltirdi. "Oyina"ning 42-soni va shu asosda "Sadoyi Turkiston" gazetasining 35-sonida berilgan xabarlarga ko'ra, Samarqandda milliy dramaturgiyamizning yangi namunalarini yaratishga bel bog'lagan g'ayratli muharrir-dramaturglar ko'rina boshlaydi. Shu kezlari Turkiston turmushidan olib, quyidagi pesalar yozilayotganidan ogoh bo'lamiz:

1) "Ahmad porina"; 2) "To'y"; 3) "Boy ila xizmatkor"; 4) "Isloh(i) maktab haqida kengash majlisi"; 5) "Eski maktab holi"; 6) "... eshigida qonli ko'z yoshlarimiz"; 7) "Ko'knori"(muzhaki).

Shunday qilib, "Padarkush" pesasi bilan Mahmudxo'ja Behbudiy boshlab bergan tashabbus keng qanot yozdi. Garchi yangi milliy pesalar yaratilayotgan bo'lsa-da, bir necha yilga qadar "Padarkush" Turkistonda teatrchilik harakatlari uchun turtki berib

turdi. Asar shu qadar ommalashib, shuhrat qozongan ediki, pesa nashri muqovasida muallif asarning har bir postanovkasi uchun o‘zidan yozma ruxsat olinishi zarurligini maxsus qayd etgan bo‘lsa ham, ko‘p joylarda bunga qaramay sahnalashtiraveruvchilar qo‘payib ketadi. Behbudiyning o‘z e‘tiroficha, 1914-yilning yanvar-sentabr oralig‘ida “Padarkush” 15 marta sahnaga qo‘yilgan. Shundan yettitasiga uning roziligi olingan. Muallif o‘z asarining bunchalik e‘tirof topib, hatto ba‘zi yerlarda ikki daf‘adan qo‘yilgani uchun mamnuniyat bildirgani holda, ba‘zi mas‘uliyatsiz o‘zboshimchaliklardan xafalanganini ham izhor etgan edi. Gap shundaki, teatrdan birlamchi maqsad yangi, g‘oyat ta’sirchan san‘at turi bilan millatning ma’rifiy-madaniy saviyasini ko‘tarish, ilm va o‘qimoqqa da’vat etish bo‘lsa, ikkinchidan, ta’kidlaganimizdek, teatr-tomoshalar vositasida muayyan mablag‘ topib, “usuli savtiya” maktablari, boshqa xil o‘kuv yurtlari, xayriya jamiyatlari, matbuot va boshqa madaniy ishlarga moddiy yordam ko‘rsatish edi. Usha davr gazeta va jurnal sahifalaridagi jadid ziyolilar tashkil etgan qaysi bir teatr yoki “sanoe’ nafisa” kechalari hakida bosilgan xabarni olib qaramang, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, ularning barchasida bu tadbirlar ma’rifiy-madaniy muassasalar ochish yo bo‘lmasa ularning moddiy ta’minotini yaxshilashga qaratilganini anglaysiz. So‘zlarimizning takror isboti sifatida yana bir xarakterli misolga murojaat etaylik: “Oyinaning 21-sonida samarqandlik mushaxislarning Qo‘qon shahriga borib “usuli jadid” maktablari foydasiga “Padarkush”ni namoyish qilganlari aytilib, davomiga teatr oqshomining maxsus mudiri Akobir Mansuriyning batafsil “hisoboti” qo‘shimcha kilinadi. “Oqshom”da 1298 so‘m 50 tiyinlik bilet, 33 so‘mlik “pro‘g‘ram” sotilib, jami 1331 so‘m 50 tiyin topilgan. Shundan 727 so‘m 10 tiyin xarajatlarga (xarajat ro‘yxati ham keltiriladi) sarflanib, 604 so‘m 40 tiyin maktab foydasiga o‘tkazilgani aytiladi. Shunisi qiziqki, sarf-xarajatlarning bu mufassal ro‘yxatida ham mushaxislar haqi haqida biror jumla yo‘q. Ularnint borish-kelish xarajatlarigina ko‘rsatilgan, xolos. Demak, aktyorlar chindan ham faqat olijanob maqsadlarni ko‘zlaganlari va ularni muqaddas g‘oya manfaatigina boshqargani shak-shubhasizdir.

Behbudiyy mana shunday sa’y-harakatlarni quvvatlab, xususiy “boylik” uchun yo boshqa g‘araz bilan pesani sahnalashtiruvchilar o‘zidan maxsus yozma ruxsat olishlarini talab qiladi: “Ba‘zi tarafdin yozilgan xatlarga qaraganda, ba‘zi teatrni maktab va yo jamiyat foydasig‘a qo‘yulub, ammo aqchasi bar vaqfi e‘lon sarf qilinmabdur.

Va teatr oqshomi xilof adab ba'zi harakatlar bo'lubdur. Oning uchun majburan e'lon qilarmizki, ba'd ushbu fojiani qo'ymoqchi bo'lgan muhtaram zotlar, avvalan muharrirdan kogaz ila javob olib va nimani foydasiga qo'ymoqlarin bildurub, so'ngra ishg'a harakat etsalar...". Behbudiy milliy teatrchilik tongidayoq bu san'at turining moddiy va manaviy halolligi masalasini ilgari surgan edi. Shuning uchun ham Behbudiy ilk davrdan masalani qat'iy qo'ydi. "Padarkush" muallifi eng yuksak ma'naviy aqidalaridan kelib chiqib, "ibratxona"da "xilof(i) adab" harakatlarga yo'l qo'yilmasligi uchun kurashdi. G'arbu Sharq mamlakatlarini kezib, teatrning goh ermak, goh ko'ngilochar maishiy muassasa sifatida, goho esa buyuk ijtimoiy-ma'naviy tarbiya, tafakkur vositasi ekanini kuzatib, u ana shu ikkinchi yo'lni tanladi. Millat istiqboli yo'lida uni eng ta'sirli, ommaviy qurollardan biri, deb tushundi. Safdoshlaridan ham shuni talab qildi. O'rni kelganda shu aqidasini ba'zi san'at kushandalaridan zukkolik bilan himoya qila oldi.

Behbudiyning teatrdan kuzatgan maqsadi va umuman jadidlarning teatr va drama estetikasi alohida, katta mavzu. Biz faqat bir oz oldinrok o'tib aytmoqchimizki, Behbudiyning bunday qarashlari o'ziga zamondosh va ayni shu paytlarda Rossiyada buyuk teatr islohotini amalga oshirayotgan K. S. Stanislavskiyning quyidagi aqidasi bilan qay bir ma'noda yaqinlik kasb etadi: "Odamlar teatrga ko'ngilxushlik qilish uchun keladilar, ammo ular bu yerdan fikr-mulohaza, o'y bilan chiqib ketishlari lozim". Xullas, keltirilgan dalillar ko'rsatadiki, "Padarkush" pesasining yaratilishi o'zbek milliy teatrining poydevori qurilishida beqiyos ahamiyat kasb etib, uning taraqqiyotini belgiladi.

Hech shubhasiz, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Andijon, Namangan, Buxoro shaharlarida havaskor ijodiy jamoalarning yuzaga kelishi Samarqandda boshlangan milliy teatr yaratish tashabbusi bilan bevosita bog'liq. Ammo Turkiston general-gubernatorligi poytaxti Toshkentda milliy teatrning tashkil topishi bu siradan boshqacharoqdir.

Minhojiddin MIRZO,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
raisining birinchi o'rinbosari*

**MAHMUDHO'JA BEHBUDIY MEROSI VA JADIDLAR
HARAKATIDA ILM-FAN, TA'LIM VA TARBIYA
MASALALARI**

Markaziy Osiyo mintaqasi, butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan jadidchilik harakati, uning yo'lboshchisi Mahmudho'ja Behbudiyning millatga o'zligini anglatgan, uyg'onish baxsh etgan hayoti va amaliy faoliyatini har tomonlama o'rganish bugungi kunda Yangi O'zbekistoni bunyod etishda har tomonlama muhim ahamiyat kasb etayotir. Davlatimiz rahbari tomonidan jadidlar merosini o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiylar xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida Mahmudho'ja Behbudiyning muazzam haykali o'rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e'tirof etildi. Iste'dodli dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiylar nomidagi mukofot ta'sis qilingani shu yo'ldagi yangi amaliy qadam bo'ldi.

Hech shubhasiz, bugungi kunda Mahmudxo'ja Behbudiylar asarlarining yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, shu asosda ularni Yangi O'zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyatini juda kattadir. Ulug' mutafakkirning millat taraqqiysiga oid fikrlari bugun ham dolzarbdir.

Bu yil mamlakatimizda **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiylar tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"**gi qaroriga asosan muhim ishlar amalga oshiriladi.

Mahmudho'ja Behbudiylar millatga najot yo'lini ko'rsatuvchi Qalb, Isyon kamoli bo'lib dunyoga kelgan edi. Vaqtiki kelib, bu najot yo'li butun mintaqaning istiqbol, istiqol yo'liga aylandi. Taniqli davlat

arbobi Fayzulla Xo‘jaevning so‘zlari bilan aytganda, *siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o‘sha vaqtdagi jadiddari orasida unga teng keladigan kishi bo‘lmagan.*

Behbudiy millatga nafaqat uyg‘onish, ma‘rifat, taraqqiyot, hurriyat yo‘lini ko‘rsatib berdi, balki bu yo‘lga o‘zini baxshida etdi, shu maqsad bilan yashadi, nafas oldi. Garchi bu yo‘l taxlikali, xatarli ekanligini bilsa-da, uni qanday og‘ir sinov va qismat kutib turganligini anglasa-da u bu muqaddas va sharaflı yo‘ldan chekinmadi. Chekinmadigina emas, bu yo‘lda bir zumga bo‘lsa-da ikkilanmasdan, qat‘iy qadamlar qo‘ydi. U Vatanni sevmog‘ni, uning ozodligi yo‘lida kurashmog‘ni eng ulug‘ murodi, deb bildi. Uning uchun bu yo‘l iymon, vijdon yo‘li edi.

Jadidchilikni o‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen hodisa, deb biladigan bo‘lsak, Mahmudho‘ja Behbudiy mazkur tarixiy hodisaning yadrosi, mehvari edi.

Albatta, taraqqiyparvar jadid bobolarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta‘sirini har tomonlama o‘rganish, XX asr boshlarida ular tomonidan barpo etilgan yangi davlat tuzilmalarini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan ilg‘or qarashlari va faoliyatiga tarixiy baho berish bilan bog‘liq masalalar bugungi yangilanish davrida alohida ahamiyatga ega.

Barchamizga ayonki, **“Tilda, fikrda, ishda birlik”** degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma‘rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

Jadidlar ta‘limoti - o‘z zamonasining haqiqiy ta‘limoti bo‘lib, bu haqida filolog olim, professor **Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik”** nomli kitobida quyidagicha fikr bildiradi:

“... Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayonni tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta‘bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i

lozimligini, anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar” .

Jadidlar – yoshlar, bu esa yoshlar harakati edi. Cho‘lpon 1910-yilda 13 yoshda, Behbudiyning yoshi esa 30 oshiqroq bo‘lgan ekan. Bu biz kattalarga qanchalar namuna bo‘lsa, yoshlar uchun ham shu qadar ibratdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maslakdoshlari bilan millatning siyosiy ongi va tafakkurini o‘stirish uchun yangi usuldagi maktablar ochdi, ular uchun darsliklar yozdi, matbuot va matbaachilikni rivjlantirdi, teatr tashkil etib, dolzarb mavzularda sahna asarlari namoyish etdi, kutubxonalar tashkil qildi.

XX asr boshlarida mustamlakachilik zulm ostida yashayotgan o‘zbek xalqini mudroq holatdan uyg‘otish, uning ongiga erk va hurriyat g‘oyalarini payvand qilishda maktab va maorif, matbuot va badiiy adabiyot bilan birga teatrning roli ham katta edi.

“Taraqqiy qilg‘on millatlar, – deb yozgan edi M.Behbudiy, – teyotrxonalarni ulug‘lar uchun maktabi adab va ibrat ataydur. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur, deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni naf‘i va zararidan paydo bo‘la turgon natijalarni teyotrxonada aynan ko‘rsaturlarki, har kim mundin ta’sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg‘a sabab bo‘lur”.Aynan ana shu niyat uni Turkiston teatr san’atining ilk namunasi- “Padarkush” pesasini yozishga undadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millat dunyoqarashini yuksaltirishda tarixning o‘rniga alohida e’tibor qaratdi.***“Turkiston tarixi” bor bo‘lganda tarixiy xatoliklarni bilib ibrat olgan bo‘lar edik.*** “Moziy istiqbolning tarozisidir”, “Tarix va jug‘rofiya” maqolalarida insonning kamol topishi va jamiyatni boshqarishda tarix fanining o‘rni beqiyosligini ta’kidladi. ***“Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo‘lmoq uchun tarixni o‘qumoq va bilmoq kerak. Podshoyu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o‘qumoq kerak. Dini islomning asli payg‘ambar va sahobalarning islomiyat va ummat uchun jafo chekkan va mehnatlarini bilmoq uchun tarix o‘qumoq kerak. Past qolgan va yo taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo‘lgan davlat, yo nopadid bo‘lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o‘qumoq kerak...”.***

1917-yil Behbudiy va uning maslakdoshlarida erk va hurriyat uchun kurash orzusini uygʻotdi. “Haq olinur, berilmaydur”, degan shiorni oʻrtaga tashlagan Behbudiy oʻsha yil oktabr oyida mustamlakadan mustaqillik tomon qoʻyilgan jildiy va jasoratli qadam boʻlgan Qoʻqonda Turkiston Muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida faol ishtirok etdi.

«27-noyabrda Qoʻqonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon sʻezdida eʻlon qilindi. Muborak va xayrli boʻlsun! Kamina ham majlisda boʻlushdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!» — deb yozgan edi Behbudiy.

Behbudiy muxtoriyatni bu zamindagi barcha millatlarning birligi, hamjixatligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran angladi. Butun vujudi bilan Turkiston axlini birlikka chorladi. **«...Hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat eʻlon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Yaʼni muxtoriyatni Turkiston bolalarining oʻzi birlashib, gʻayrat ila olurlar. ...Biz boʻshlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yoʻliga saʼy qilmasak, albatta hozirgi qogʻoz ustidagi muxtoriyatimizni ham yoʻq qilurlar».**

U Turkiston xalqini oʻqimishli, oʻzligini anglagan, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlaridan bahramand, ular istifodasiga qodir, yuksak fazllar sohibi sifatida koʻrishni orzu qildi, bu ulugʻ niyatni amalga oshirish uchun kurashdi. ***“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol boʻlur”.*** Jadid maktablari mohiyatini u loʻnda qilib shunday talqin qildi: **“... Zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlar va fununi zamoniyani darbar (oʻzida saqlagan, tashuvchi) qilgan odamlarni talab qilur”.** **“Kelar zamon uchun hozirlanayluk, oʻtgan zamon uchun emas”.**

Oʻz taʼbiri bilan aytganda «har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutish»ga intildi. Chunki u Turkiston xalqida bunday hissiyotning yoʻqligidan qaygʻurdi. Uning fikricha, bu hissiyotni maktablar tarbiyalashi kerak. U maktabni ***“taraqqiyning boshlangʻichi, madaniyat va saodatning darvozasi”*** deb bildi. Behbudiy kelajak davrni **“tamaddun asri”** deb atadi. Bunday davrda zamonaviy ilmlarsiz, quruq, chirik tassaubot bilan yashab boʻlmasligini uqtirib, jadid maktablarida koʻproq zamonaviy dunyoviy fanlarni oʻzlashtirishga diqqat qaratdi. Dunyoviy fanlarni esa jahonning taraqqiy qilgan xalqlari ilm-fani orqali

o'rganishni zarur deb bildi. Uning chuqur iztirob bilan aytgan har bir so'zida millat qayg'usi mujassam edi: **“Oh! Biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamoniy ila osmonlarga uchar, biz hanuz bir-birimizni takfir (kofirga chiqarish) va tal'in (la'natlash) ila vaqt o'tkarurmiz”,** degandi u. Behbudiy yoshlar jahonda munosib o'rin egallashlari uchun **ikki emas, to'rt tilni bilishlari lozimligini** yoqlab chiqdi. Xatto o'limi oldidan ham millati istiqbolini o'yladi. So'nggi nafasida bitgan vasiyatidagi **“Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangiz! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingiz! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingiz!”** degan so'zlari har bir vatandoshimiz uchun bir umrga yetarli vatanparvarlik ibрати bo'lib xizmat qiladi.

Bahodir KARIMOV,

*Alisher Navoiy nomidagi
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
kafedra mudiri, filologiya fanlari
doktori, professor*

BEHBUDIY MA'RIFATI

Turkiston jadidchiligi tarixidagi barcha yo'l va yo'nalishlari, asosan, Mahmudxo'ja Behbudiy ijodiy faoliyati va shaxsiyatiga borib taqaladi. Behbudiy o'zi yashagan muhitdagi insonlar fikrini o'zgartirish va dunyoqarashini zamonga mos shakllantirish uchun bor kuch-quvvatini sarfladi. Milliy ta'limdagi yangilashlarni maktablar islohatidan boshladi. Ilm-ma'rifatni vosita qilib, mudragan odamlarni bilimga, taraqqiyotga, dunyo tamadduni bilan bo'ylashmoqqa chorlaydi.

Behbudiy fikrlari har qanday inson uchun ko'zgu - oyina vazifasini bajardi. Jurnaliga shu nomni qo'ygan Behbudiy teatrni ham oyina, ibratxona, deb atadi. **“Taraqqiy qilgan millatlar tiyotrxonalarni ulug'lar uchun maktab, adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri tiyotrlardur”.** Mushaxxas-artistlar ijrosi ortidan sahnada turli tabiatli insonlar paydo bo'ladi; voqelik jonli bayon qilinadi. Unda kulgi ham, yig'i ham, jiddiyat ham

mujassam. Tabiiyki, teatrdan tarbiya olinadi. Behbudiy ta'kidicha, teatrdagi "Qulil haqqa valav kana murrani", ya'ni "Achchiq bo'lsa ham haqiqatni so'zla" hadisi sharifi zohir bo'ladi. Ibratxona-teatr shu zaylda o'zining adabiy-madaniy, ijtimoiy-maishiy vazifasini bajaradi.

Behbudiy fitratida millatning istiqbol uchun qayg'urish kuchli edi. Shuning uchun ham "Yozda qish kunining anduhi bilan yugurmasangiz, qishda kuno-kun mehnat va kulfatlarga yo'liqarsiz. Bizni arz qilganlarimizni ma'naviy va ruhoniylar rohat va farahliklarini bir zamon ko'rarsiz", deb yozdi. Har bir mamlakat istiqbolda moddiy tomondan farovon bo'lishi uchun mukammal iqtisodiy reja va ijtimoiy-siyosiy dasturga ega bo'lishi lozim. Xuddi shunga o'xshab, har bir inson kelgusida ma'naviy-ruhoniylar saodatiga erishmog'i uchun aynan o'zi yashab turgan kunlarni g'animat bilishi shart. Hosilasi, natijasi kelgusida ayon bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy g'oyalarining hayotiylik kasb etishida olimlar - ulamodan umid qildi. Olimning olamga befarq qarshi mumkin emas. Olim – behalovat yashayotgan fikr odamidir. Agar ular "huzuri tamom ila istirohatda" istiqomat qiladigan bo'lishsa, jamiyat taraqqiyotdan ortda qolishi mumkin. "Ulam bo'lmasa, xalq to'rt oyoqlik hayvonlardan badtar bo'lur". Behbudiy fikricha, shuning uchun olimlar "Ulum va zamon fanlaridan hissa olsinlar. Xalq va avomni hidoyat etsinlar, rasm va rusumdan yomon va zararli moddalarni daf va raf etsinlar. Ulamo varasati anbiyo, ulamo qavomi din, ulamo millat ustunidur, sababi islohi ummatdur". Darhaqiqatan, shunday - "xaloyiqni ulamo isloh" etadi. Fahm-farosatli, iymon-e'tiqodli, haqiqatgo'y olimning bashariyat oldidagi xizmati benihoya ulug'.

Behbudiyning hayoti va faoliyati ibrat mayog'i, yozgan asarlari - adabiy merosi fikr bulog'idir. Uning qarashlari negizida ezgulik, insonni ulug'lash, har bir odamning hurligi va shu kabi bebaho odamiylar tushunchalari mujassamdur. Faqat ularni uqish, mulohaza qilish kerak. Hamma biladigan bir xildagi gaplar takrori gohida tarixning orasta oynasi yuziga g'ubor to'playdi. G'ubor o'quvchini behuzur qiladi.

Georgafiya va tarixni bilish kerakligini uqtirgan Behbudiy bu xususda, aynan bir sarlavha ostida ikkita maqola yozdi. "Zamoni sobiqada jismoniy va ruhoniylar va ma'naviy qal'a va hudud va suvlarimiz bor ediki, alar sababli millati diniyamiz mahfuz va barcha marosim malfuf qolur edi. Hozirg'i zamong'a na had qoldi, na hudud,

na qal'a qoldi va burji zamon-zamon ilm va maorif bo'ldi. Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo'q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo'q" (Mahmudxo'ja Behbudxo'ja. TVG. 1908 yil, dekabr).

Garchand maqolalarning yozilish orasi olti yilni tashkil etsa ham, ular mohiyatiga ko'ra biri ikkinchisini to'ldiradi. "Bizni Turkistonda ba'zi eng muhtaram muborak kishilar tarixdan bilkulli bexabardurlar. Hatto bexabarliklaridan xabarsizdurlarki, bu bexabarliklaridan ba'zan uyatga qolib, hatto ish sharmandachilikg'a yetar". Shu gapdan keyin muallif "hanuz yodimdudur" deb ibrat uchun juda muhim bir hayotiy voqeani so'zlaydi. (Mahmudxo'ja Behbudiy. "Oyina". 1914 yil aprel-may). Behbudiy diniy ulamo bo'lgani uchun har bir voqeani, ko'ndalang turgan muammoni hal etishda Qur'oni karim oyatlaridan dalil keltiradi. Muqaddas kitobda ilmga ahamiyat berilgani xususida dunyo olimlaridan birining fikridan ko'chirma oladi: "Misr al-Qohira ulamoi banomindan al shayx Tantoviy al Javhariy janoblari "Al-toj al marsa' ba javohiral Qur'on" kitobinda derki: "Qur'oni karimda har nav'i ilmlarni sharh va anga targ'ib etib qiziqlanturguvchi oyatlar 764 qadar bo'lub, ibodatg'a buyuraturgan oyatlardan yigirma to'rt daf'a ziyodadur. Hazrat payg'ambarimiz ham buyurganlarki: "Hikmat musulmon kishini yo'qolgan molidurki, ko'rgon yerinda olur". Albatta, ilmi jug'rofiya va ilmi hay'at ilmi hikmatdandur. Ilmi hikmat o'qumoqni usul jadidchilar chiqargan yo'q. Balki ming sanalardan beri olami islomning madrasalarinda o'qulmoqda va ilmi hikmat atalaturgon kulliyai ulumg'a doxil ilmlarg'a musulmon ulamolari ko'b kitoblar tasnif etgandurlar".

Behbudiy davom etadi: "Past qolgan va yo taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo'lgan davlat, yo nopadid bo'lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak". Manfaatli tarix shunday maqsadda o'qiladi. Ilm turlari bo'yicha bahs yuritgan adib tarix bilan geografiya haqida quyidagicha yozadi: "Tarixni yaxshi bilmoq uchun yana jug'rofiya kerakdur. Tarix bir voqeani bayon etar, jug'rofiya bo'lsa, o'shal voqeaning bo'lgan yerini va bo'lganidan vujudg'a kelgan ta'sirni bayon etar, ya'ni tarix ila jug'rofiya zarf ila mazruf (ya'ni biror idish va uning ichidagi narsa –B.K.) kabidur". O'xshatishi ham o'rinli, albatta.

Turkistonda nashr bo'lgan ikki gazeta – "Sadoyi Turkiston" va Sadoyi Farg'ona"ni Behbudiy egizak sanaydi. Bu "chirog' va niholga" o'xshagan ikki matbuotga "yog' va suvga berib tarbiyat" qilish zarur, deb hisoblaydi. Aks holda qurib qolishi hech gapmas.

Rag‘bat va g‘ayrat bo‘lmasa, moddiy va ma’naviy suyanch bo‘lmasa, yoqilgan chirog‘lar o‘chishi, ko‘chatlar qurishi mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiylarning ilm-ma’rifat nuri bilan Turkiston zaminini va turkistonliklarning qalbini tanvir etgan allomai zamon edi. Boshqacharoq aytganda, bu ziyoli inson nur taratdi, turkistoniylarning yo‘llariga chirog‘ yoqdi. Shogirdi Vadud Mahmud ustozini chiroqqa taqqoslab: “Mahmudxo‘ja Turkistonning yangilik davri tarixida yorug‘ bir chirog‘ edi”, deb yozdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiylarning va uning tegrasida jamlangan jadidlarning orzulari sho‘ro davrida sarob bo‘ldi. O‘ziga o‘nlab-yuzlab maslakdosh va izdoshlar topgan Mahmudxo‘ja Behbudiylarning sirli o‘limidan keyin – oradan yetti yil o‘tib, Laziz Azizzoda “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida: “Behbudiylarning xizmati fransuzlarning Jan Jaq Russo, ruslarning Lomonosov, Chernishevskiy va Pisarevlari, Kafkaz turklarining Fathali va Najafbeklari, tatarlarning Marjoniy va Nosiriysi ila birdur”, deb ustozining tarixiy xizmatlariga baho beradi. L.Azizzoda yana yozadi: “Behbudiylarning irodasining kuchliligi, muomalada favqulodda ustalig‘i, dialektikligi, nazariyotchiligi ila barobar amaliyotchiligi, har ishni hayotdan olishlig‘i va iqtisodg‘a ahamiyat berishi ila o‘z zamondoshlaridan ayrilib, o‘ziga maxsus muhim bir o‘run oladir. Ul o‘zi Turkistonning eski madrasasidan chiqqan bir kishi bo‘lg‘oni holda G‘arb dardlari bitirib kelgan kishilarning qilmag‘on xizmatlarini ado qilib ketdi”. Garchand Behbudiylarning vafot etgan bo‘lsa ham, uning g‘oyalari, ma’rifat chirog‘i o‘chmadi; umid yulduzi so‘nmadi. U boshlagan ishlarni shogirdlari davom ettirdi. Aslida zamon olimlari qo‘llarida chiroq ko‘tarib, zulmatni yoritib borayotgan yo‘l boshlovchilardir. Adashib qarong‘u ko‘chaga kirib qolgan kimsa, imkonsiz sharoitda qiynab chiroqni qayta kashf etishga umrini sarflamasdan olimlar qoldirgan ilm-ma’rifatga murojaat qilmog‘i lozim. Shu e’tibordan Behbudiylarga kabi jadid allomalari yozgan qiymatli asarlar bugun bizga yo‘ldosh va chiroq o‘rnidadir. Alloma adibning ma’rifat nuri barchaning qalbini, fikri va kelajak yo‘lini hamisha yoritib turajak.

Hulkar HAMROEVA,

*O'zbekiston davlat xoreografiya
akademiyasi dotsenti, filologiya
fanlari doktori (DSc)*

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY: UMUMBASHARIY TARAQQIYOT TAMOIYILLARI VA YOSHLAR MA'NAVIYATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi Qarorida ta'kidlanganidek, «Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir»¹.

Jamiyatda ma'naviy – ruhiy va siyosiy iqlimni barqarorlashtirishda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhim ahamiyat kasb etadi. Yurt ozodligi uchun jonini ham ayamagan vatanparvar, taraqqiyparvar, jadid bobolarimizning oliy maqsadlari xalqni ma'rifatli qilish yo'li bilan o'lka mustaqilligini qo'lga kiritish edi. Atoqli olim, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor B.Qosimovning fikricha, «Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan, ular manfaati uchun kurashgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qiladi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi»².

Ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyandasi, o'lka

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Туркистон жадидлик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби,ношир ва педагог Маҳмудхўжа Бехбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги Қарори. ЎЗА, 2025 йил, 5 январь.

² Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: «Маънавият» нашриёти, 2002. Б. 211.

jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrshunos, noshir, jurnalist - buyuk salohiyat va zakovat egasi edi. U tariximizning g'oyat og'ir va ziddiyatli, inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgan bir davrida yashadi. Uning barcha asarlari qatorida «Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat» maqolasini nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunimizning ham ulkan voqeligi sifatida e'tirof etish mumkin. Uning daholik hamda siyosiy arboblik qudrati shundaki, u davrning eng dolzarb muammolariga munosib yechim topishga intildi va eng asosli, hayotiy – ijtimoiy fikrlarni ilgari surdi. Jamiyat taraqqiyotiga zarar keltiruvchi, umumbashariy birlikka tahdid soluvchi illatlarni fosh qildi. Olim taraqqiyotdan orqada qolmaslik shart ekanligi, aks holda millatning, yurtning va mintaqaning istiqboli parokanda bo'lishi haqida qayg'uradi. Mintaqada tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash uchun turkiy tilli xalqlarning birlashishi zarur ekanligini ta'kidlaydi:

«Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe' bo'lub, yutilub, hatto, tilini yo'qotgan bu jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdur. Turk tomirig'a bolta urmoqlikdur.»³

Behbudiyning tarixiy xizmatlari shu darajada buyukki, ularni bir – bir sanash va izohlash nihoyatda mushkul. U birinchilardan bo'lib, milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi. Yoshlarni buyuk ajdodlari, milliy g'ururi, boy madaniy merosi bilan faxrlanishga, asriy an'analarga ega milliy qadriyatlarni asrab qolishga da'vat qildi. Professor D.Alimovanning fikricha, «Behbudiyni milliy ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlaka boshqaruviga olib kelishini juda yaxshi tushungan»⁴ Milliy ozodlik uchun kurashning, keng qamrovli islohotlarning genetik asosini yaratdi. Jumladan, «Yoshlarga murojaat» maqolasida qayd etilganidek, «... hozirgi zamon ishlarig'a xoh tijorat va hukumat va san'atxonalarga bo'lsun,

³Бехбудий М. Қозоқ қариндошларимизға очиқ хат.// Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 148.

⁴Алимова Д. Жаҳидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жаҳидлар тафаккури. Жаҳидчилик: Ислохот, янгилиниш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: “Университет”, 1999. Б. -48.

kirib vazifa olmoqg'a va ish qilmoqg'a ilmi zamoniylar degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan»⁵.

Milliy uyg'onish va milliy yuksalish jarayonida har bir xalq o'zining milliy qadriyatlari va madaniy an'analarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda ko'rishi, uyg'unlikda his qilishi zarur. Ma'lumki, har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va o'ziga xos ijtimoiy – hayotiy tamoyillari bo'ladi. Jamiyat yangilanayotgan bir paytda yangi yondashuvlar va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida, takomilga erishishida Behbudiyning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va «ilmi zamoniylar» haqidagi o'tli fikrlari nihoyatda qimmatli va qadrlidir. «Qozoqlar qarindoshlarimizg'a ochiq xat» milliy va mintaqaviy ehtiyojlarni nazarda tutgan muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

XX asr boshidagi adolatli davlat boshqaruvi, mintaqada tinchlik hukm surishi uchun millatlararo totuvlik ulkan ahamiyatga ega ekanligi haqidagi qarashlarni qamrab olgan «Qozoqlar qarindoshlarimizg'a ochiq xat», «Muhtaram yoshlarga murojaat» kabi maqolalar jadidchilik harakati yetakchisiining dunyoviy va ruhoniylar aql – zakovat, umuminsoniy tafakkur hamda yurtga sadoqati uyg'unligi asosida vujudga kelgan mukammal vatanparvarligining yorqin namunasidir.

Zero, hamma zamonlarda ham millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish ustuvor vazifa bo'lib, ijtimoiy – etnik muammolarni hal etishda davlat faqat adolatga tayanishi shart. Behbudiylar milliy va millatlararo munosabatlarni muayyan tizim sifatida tartibga tushirish tamoyillari haqida o'z fikrlarini bildiradi: « Hammangizga ma'lumdurki, Turkiston, demak - turkiylar el bo'lib, mundagi xalqlarning qozog'i, qirg'izi, sarti, o'zbeki, turkmani, tatari – hammasi aslan... jahongir... Temurning avlodi yoki og'a – inisidurlar.»

Behbudiylar buyuk «jahongir... Temurning avlodi yoki og'a – inisidurlar», ularning yangi avlodlari faqat birlik ilmi orqali saodatga erishishlarini qayta - qayta takrorlaydi: «... Turkiston yoshlari muallim yetushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur. Agar bugungi yoshlarimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni ifo etmakga qasd eta boshlasalar, muallim yetushdurmoqni chorasi ham topilsa kerak»⁶.

⁵Behbudiylar M. Ёшларга мурожаат.// Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 170.

⁶Behbudiylar M. Қозоқ қариндошларимизга очиқ хат.// Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 148.

«Xurshid» gazetasining 1906 yil, 11 oktabr sonida bosilgan «Xayrul – umuri avsatuho» («Ish (amal)larning yaxshisi o‘rtachasidir») sarlavhali maqolasida u birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirish zarur, degan g‘oyani o‘rtaga tashlaydi⁷. Behbudiy o‘zining butun faoliyati davomida yagona, mustaqil Turkiston birligi uchun kurashdi.

«Chirog‘larim, birlashaylik! Ko‘rasiz, bu kungi ruslarda birlashmoqdadurlar. Endi birlashmoq zamonidir. Agarda siz ayrilsangiz, turkman qarindoshlar –da ayrilsa. Turkiston turklari uch yerga bo‘linib ketar va barchaga muxtoriyatdan nasiba chiqmay qolur. Yettisuvdagi musulmon qarindoshlarga ham aytaturg‘on so‘zim shuldur.»⁸

So‘nggi 7 – 8 yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi aloqalar misli ko‘rilmagan darajada yuksalib, konstruktiv va o‘zaro manfaatli sheriklikning mukammal namunasini namoyish etmoqda. Eng muhimi, ikki yaqin qo‘shni davlat rahbarlari global va mintaqaviy siyosat masalalarida ham bir – birlarini hamisha qo‘llab – quvvatlaydilar.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bu do‘stona va yaqin qo‘shnichilik munosabatlari nafaqat O‘zbekiston va Qozog‘iston, balki butun mintaq uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi Shartnoma imzolangani bejiz emas. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Umumiy tariximiz, madaniy va ma’naviy qadriyatlarimiz, an’ana va urf - odatlarimiz bizni birlashtirib turadi. Qozog‘iston O‘zbekiston uchun eng yaqin, ishonchli va davr sinovidan o‘tgan hamkordir. Bugungi murakkab zamonda o‘zaro munosabatlarimiz davlatlararo hamkorlikning namunasi bo‘la oladi, deb hech mubolag‘asiz aytishimiz mumkin”. Ikki qardosh mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning jadal rivojlanayotganligi xalqlarimizning qalban yaqinligini bildiradi.

Akademik B. Nazarovning fikricha, “Jadidchilik davlat,tuzum, boshqaruvni isloh etish, va millatni rivojlantirish orqali, umuman jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan g‘oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o‘zida

⁷Behbudiy M. . Хайрул умури авсатухо.// Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 148.

⁸Behbudiy M. Қозоқ қариндошларимизға очиқ хат.// Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 148.

mujassaamlantirgan tizim ekani barchaga ayon. Shunday ekan, bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o'ynagan Turkistondan ulkan tarixiy bir o'lkada ko'p asrlar davom etib kelgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni G'arb va Ovrupa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko'zlaganini hamda XX asr tongida yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini izlaganini, istibdod sharoitida o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lida kurashga kirishganini ko'rsatuvchi sertarmoq va murakkab jarayonlarni o'zida ifoda etdi"⁹.

Atoqli ma'rifatparvar olim Mahmudxo'ja Behbudi milliy jurnalistika, milliy adabiyot, milliy ta'lim bilan bir qatorda milliy davlatchilik, mintaqaviy yakdillik taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shdi. Uning rahbarligida jadidlar milliy davlatchilik qurish uchun harakat qildilar. Ya'ni, yagona Turkiston birligi uchun kurashdilar va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldilar. Ozodlik, milliy g'urur kabi unutilgan qadriyatlarni tiklashga urindilar. Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyni "Qonuni Ovrupo" ("Yevropa qonunlari") maqolasini ham tilga olish. Unda Behbudi o'z halqining taraqqiyotini nafaqat ma'rifat bilan balki siyosiy o'zgarishlar, Turkiston birligi va mustaqillikka erishish bilan bog'lagan.

Jadidshunos olim R.Sharipovning fikricha, "Jadid ziyolilari o'z oldida turgan asosiy vazifa kelajakda o'zbek xalqini fojiali oqibatlarga olib borishi mumkin bo'lgan ruslashtirish siyosatiga qarshi kurashish, yosh avlodda milliy til, tarix va madaniyatga hurmat tuyg'usini tarbiyalash, milliy urf – odatlar va san'at turlarini saqlab qolish va yaqin kelajakda amalga oshishi lozim bo'lgan mustaqillik haqidagi orzularni yoshlar shuuriga singdirish edi"¹⁰. Millatni fojidan asrashning yagona yo'li sifatida jadidlar "yosh avlodda milliy til, tarix va madaniyatga hurmat tuyg'usini tarbiyalash, milliy urf – odatlar va san'at turlarini saqlab qolish"ga qattiq kirishadilar.

Behbudi doimo millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo'ldi. Shuning uchun ham tarixga va ilmga alohida e'tibor berdi. U o'z asarlarida yosh avlod ma'lumotli, madaniyatli bo'lishi, ular she'r

⁹ Назаров Б. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: 1999. -Б.4.

¹⁰ Шарипов Р. Жадид адабиётида янгиланиш, ислохот ва мустақиллик учун кураш ғояларининг акс этиши. Т.: 2023. –Б.30.

va makolalar yozish, yod olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur deb hisobladi va "Padarkush" kabi sahna asarlari orqali millat bolalarini yetuk iste'dodli qilish uchun jon kuydirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining millat va Vatan, jamiyat va axloq, ona tili, yangi usul maktablari, komillik tarbiyasi, ta'lim va sharqona odob, madaniy meros kabi mavzularda 300dan ortiq maqolalar yozdi.

Maqolalarning o'ziga xos tarixiy, ilmiy va falsafiy qadriyati beqiyos. Ular bugungi kunda ham juda katta iztirob va ehtiros bilan o'qiladi. Ularning har birida zalvorli fikrlar aytilgan, olimning ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy – mafkuraviy, madaniy – ma'rifiy qarashlari aks etgan. Behbudiyning ko'p qirrali faoliyatida huquqiy-ijtimoiy, ma'naviy – mafkuraviy, madaniy – ma'rifiy tamoyillar ustuvorlik qiladi.

Ulug' alloma har qanday huquqiy davlatning negizida adolat va demokratiya, milliy g'urur va bag'rikenglik bo'lishi zarurligini qonuniy asoslagan. Har bir jamiyat o'z a'zolarining yetukligi, barkamolligi, salohiyati bilan faxrlanadi. Chunki, komil insonlar ko'p bo'lgan jamiyat ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan gullab yashnaydi. Buyuk ma'rifatparvar, ulug' alloma va jamoat arbobi, o'zbek dramaturgiyasining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari mustaqillik sharoitida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi Qarori. O'zA, 2025-yil, 5-yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri S.Doniyorovning savollariga javoblari. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. "Yangi O'zbekiston" gaz. 2021-yil, 17-avgust.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrigi. uza. uz 27. 06. 2020y.

4. Alimova D. Jadidchilik : islohot, yangilanish mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.T.: 1999.

5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. "Ma'naviyat", T.: 2020

6. Rizaev Sh. Jadid dramasi. - T.: Sharq, 1997.
7. Qosimov B. Maslakdoshlar. T.: 1994.
8. Sharipov R. Jadid adabiyotida yangilanish, islohot va mustaqillik uchun kurash. T.: 2005.

Abdulla ULUG'OV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti professori, filologiya
fanlari nomzodi*

TURKISTON AYANCHLI AHVOLI

Insoniyat hayoti hamisha g'oyat murakkab va sir-sinoatga to'la jumboqdir. U o'z tarixida juda ko'p voqea-hodisalar bilan bog'liq holda, kishilarning ong-tafakkuri, dunyoqarashi, yashash tarziga ta'sir ko'rsatadigan ulug' siymolarni ham maydonga chiqaradi. Ular vatan tarixida, xalq, millat hayotida keskin ijtimoiy-siyosiy burilish ro'y bergan serg'alva davrda dunyoga keladi va o'zining noyob iste'dodi, ko'p qirrali jo'shqin faoliyati, jasurligi, fidoyiligi bilan barcha zamondoshlaridan alohida ajralib turadi. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875 – 1919), Abdurauf Fitrat (1886 – 1938), Abdulla Qodiriy (1894 – 1938), Cho'lpon (1897 – 1938) va ularning safdoshlari o'zbek xalqi tarixidagi ana shunday ulug' siymolar sirasiga kiradi. Ularning nomi o'zbek xalqi tarixi sahifalariga mangu muhrlangan bo'lib, bu ulug' zotlarning serqirra, jo'shqin faoliyati XX asr voqeligiga alohida ulug'vorlik, keyingi zamonlar manzarasiga esa bo'lakcha ziynat bag'ishlab ko'rinadi.

Turkistondagi jadidchilik harakatining ulug' namoyandalari sifatida e'tirof etiladigan bu buyuk siymolarning murakkab zamonda, tahlikali davrda, ayovsiz kurashlar ichida kechgan jo'shqin hayoti, serqirra ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, adabiy-badiiy faoliyati hurriyatni, ozodlikni ardoqlaydigan, inson haq-huquqlarini qadrlaydigan barcha erksevar xalqlar uchun ibrat namunasiga aylangan. Ularning asarlarida har bir odam ilm-ma'rifatni o'rganish orqali o'zligini taniydi, hayot ne'mati unga nima uchun berilganini idrok etadi, xalqlar ham ilm-ma'rifatni egallaganidagina millat maqomiga erishib, dunyoda

kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonga teng huquqli a'zo sifatida faol aralashadi, aks holda, barcha zamonda maydonga chiqib turadigan mustabid zo'ravonlarga oyoq osti bo'lib qoladi, degan g'oya ilgari suriladi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Abdurauf Fitratning "Munozara"sida aynan mana shu fikr asarning g'oyaviy konsepsiyasini belgilab beradi. Ijtimoiy-siyosiy inqirozga uchragan Turkiston o'lkasi kundalik maishiy turmushidagi voqealarga asoslangan, ma'nan-ruhan holdan toygan mahalliy aholi ahvoliga chuqur achinish hissi bilan iztirobga to'lib bitilgan, nomlanishining o'ziyoq fojeiylikni ayon etadigan "Padarkush" dramasida ilm-ma'rifatga bepisandlik bilan qarash halqning, millatning fojiasi sifatida kishilarni johil etib, ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi – barcha yaqinlarining qotiliga aylantirib qo'yishi Turkiston kishilari turmushidan olingan hayotiy voqea asosida gavdalantiriladi. Asarda johillik kishilar turmushidagi barcha mojarolar, urish-janjallar, nizo, kelishmovchilik, xunrezliklarning asos manbasi ekani, chunki bu illat insonning tabiatidagi xudbinlik, manfaatparastlik hissini olovlantirib yuborishi, shu tufayli odam jahli, g'azabini jilovlashga ojiz bo'lib qolishi va oqibatda, u tuzatib bo'lmaydigan ayanchli, xunuk xatolarni qilib qo'yishi aks ettiriladi. Nafaqat muallifning, balki o'sha davr ilg'or fikrli ziyolilarining tili va dilini ifodalagan, g'oyaviy yuksakligi, keng xalq ommasiga yengil tushunarli sodda uslubda bitilgani bilan o'sha davr adabiyotida alohida ajralib turadigan "Padarkush" mana shu haqiqatni gavdalantirgani bois avvalgi davr adabiyoti namunalaridan bir bahya balandda turadi. U o'tmish adabiyoti manzarasini belgilagan g'azal, ruboiy, tuyuqlar bilan qiyoslanganida Mahmudxo'ja Behbudiyning asari turmush voqeligiga yaqinligi, mazmun jihatidan teran va salmoqli ekani yaqqol bilinadi. Ilk jumalaridanoq so'zlashuv tiliga xos sodda tilda bitilgani aniq ayon "Padarkush"ning o'ziga xos eng muhim qimmatini u ilm-ma'rifatdan bebahralik insonni ma'naviy majruh etib, haqiqatni ko'rolmaydigan ayanchli ahvolga solib qo'yishini ko'rsatib bergani bilan belgilanadi. Muallif bir xonadon misolida butun bir millat turmushidagi, mustamlakachilar iskanjasida qolib, o'zligini yo'qotgan xalqlar hayotidagi fojeiy manzarani ko'rsatadi. Boyning xonadoni ilm-ma'rifatning qadrini anglamasligidan jaholat botqog'iga botgan millatning jajji modeli bo'lib ko'rinadi. Negaki unda boyning timsolida, uning o'g'li Toshmurodning misolida ilm olishga intilmaslikning ayanchli oqibati, ta'lim-tarbiya ishiga panja orasidan

qarashning g'ayriinsoniy mohiyati to'la-to'kis ochib beriladi. Markaziy Osiyo mintaqasi tarixida ulug' davlat rahbari va siyosiy arbob sifatida o'chmas iz qoldirgan Fayzulla Xo'jaev (1896 – 1938): “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigan yo'q” deb e'tirof qilgan Mahmudxo'ja Behbudiy o'z g'oyasini ifodalash uchun milliy turmush voqeligini asos qilib oladi (Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 1997. – 232 b. – 5-bet). Ya'ni milliy turmush voqeligi ilk o'zbek dramasi sifatida e'tirof etiladigan “Padarkush” uchun o'ziga xos poydevor sanaladi. Alloma asarini “Padarkush” degan birgina so'z bilan nomlash bilan cheklanmasdan, sarlavha tagiga “yoxud o'qimagan bolaning holi” degan izohni ham qo'shadi. Bunga ham qanoatlanmasdan qavs ichida “Turkiston maishatidan olingan ibratnoma” deb qayd qiladi. “Padarkush”da qalamga olingan voqelik ham Turkiston ahli bu paytga kelib, turmushdagi oddiy haqiqatni idrok qila olmaydigan darajada ma'naviy qashshoq, ayanchli ahvolda ekani, ruhan nochor bo'lib qolgani, odamlar dramaning ma'no-mazmuni, g'oyasini tushunishi uchun asarning nomlanishiga shunday izoh zarurligini tasdiqlaydi.

Syujeti voqealari Turkiston kishilari kundalik maishiy turmushidan olingan “Padarkush”ning asosiy qahramoni – boy. Muallif unga ham, uning xotiniga ham ism qo'ymagan. Asarning “qatnashuvchilar” qismida uni “boy – 50 yashar”, xotinini esa “boyvuchcha – boyning xotini, 35 – 40 yashar” deb tanishtirish bilan kifoyalangan. “Padarkush”i va maqolalari bilan ko'plab qalamkashlarni ilhmolantirgan, serqirra jo'shqin faoliyati bilan boshqa ziyolilarni ortidan ergashtirgan Mahmudxo'ja Behbudiy dramadagi boy va boyvuchcha Turkistondagi yuqori tabaqa vakillari, boy-badavlat kishilar guruhining umumlashma obrazi ekaniga shu tarzda ishora qilgan. Muallif asar qahramoni Toshmurodning jinoyat “ko'cha”siga kirib, hayoti barbod bo'lishiga, birinchi galda, uning otanasi aybdor, ularning ilm-ma'rifatni qadrlamasligi sababchidir, degan. U diniy va dunyoviy ilmlardan bebahrlik har qanday o'spirinni o'yinqaroq, xudbin, manfaatparast, aysh-ishratga o'ch, hayvoniy nafs istaklariga muhtalo qilib qo'yishi, uning risoladagiday inson bo'lib ulg'ayishiga to'sqinlik qilishini mustamlakachilar iskanjasida qolgan Turkiston turmushidan olingan oddiygina kundalik voqelik asosida ko'rsatgan. “Qatnashuvchilar”da Toshmurodni “boyning o'g'li, 15 – 17 yashar” deb tanishtirgan.

Mazmuni, g'oyasi nomlanishida mujassam, uch parda, to'rt manzara (ko'rinish)li mazkur drama "qatnashuvchilar"da "yangi fikrlik, 30 – 40 yashar bir mulla" deb tanishtirilgan "domullo" bilan boyning suhbatlari va shu paytda ular huzuriga kirib kelgan 15 – 17 yashar Toshmurodning otasi bilan qilgan ikki og'iz muloqoti bayoni bilan boshlanadi. Ana shu qisqa muloqotda shariat ahkomlari va dunyoviy ilmlarga beparvo boyning xonadonidagi, uning misolida turkistonliklar oilasidagi xunuk, achinarli manzara ko'rinadi. Toshmurod mehmonxonada domulla bilan suhbatlashib o'tirgan otasining oldiga, hech kimga salom bermasdan kirib keladi va: "Ota, tomoshaga boraman, pul bering" deb aytadi. Boy undan: "Kim ila borasan?" deb so'raydi. Toshmurod unga: "Tursun akam ila" deb javob beradi. Boy kissasidan pul chiqarib, o'g'liga beradi-da: "Albatta, vaqtli kelinglar va yomon yerlarga bormanglar" deb tayinlaydi. Toshmurod esa otasiga: "Xayr, xayr, hov ko'p gapura(r) siz-da" degancha chiqib ketadi. Bu holatni ko'rib, domulla boy va uning o'g'liga ajablangancha qarab, boshini quyi solib oladi va boydan: "Xo'p, xo'p, boyvachcha katta bo'libdur, xudo umr bersin, o'g'lingiz usuli jadid maktabigami o'qiydur yoki eski maktabga?" deb so'raydi (Behbudiy, Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1997. – 232 b. – 40-bet).

Shu o'rinda "Padarkush"ning tilida, muallifning maqolalari matnida o'zbek tili grammatikasi qoidalariga muvofiq kelmaydigan ba'zi jihatlarning mavjudligi, chunki o'rin-payt kelishigi (– da) o'rnida jo'nalishigi (– ga) qo'llanishi, fors tiliga oid so'zlar ko'p ekanligi, ayni holat muallif Samarqand shahri yaqinida din ulamosi xonadonida tug'ilib o'sgani, Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgani va boshqa omillar bilan bog'liqligini alohida qayd etish joiz. Mahmudxo'ja Behbudiyning yaqindan tanigan-bilgan, uning yaqin maslakdoshlaridan biri Vadud Mahmud (1898 – 1976)ning Abdurauf Fitrat asarlari tili xususidagi: "Fitratning o'zbekchasi umuman silliq emasdir. O'qug'onda chekilmasdan chiqilmas... Ma'lumki, Fitrat o'zbekchaga ishlamak uchun Buxoroda o'ylaydi. Tahsili turkiyda bo'lg'on edi. Shahar tili tojik tili. Tilni kitoblardan, lug'atlardan o'rganmakka to'g'ri keldi. Toshkentda turg'on vaqtlarida bu yerning buzuq shevasini yoqtirmay, doimo lug'at o'rganmak bilan mashg'ul bo'ldi va o'ziga maxsus bir sheva bilan so'zlashdi. Shuning uchun biz o'ylaymizki, Fitrat tilni xalq bilan yaqinlashmay turib o'rganganidan va o'zbekchani maxsus ta'birlarini eshitmaganidan shevasi

boshqacharoq chiqdi... Buxoro tilining ta'siri o'laroq, "borib bilmayman", "qilib bilmayman" kabi so'zlar bor. "O'lalar", "kechiralar" kabi iste'mol qilinmag'on ta'birlar, "hormag'aylar", "bor bo'lg'aylar"ga o'xshag'on eshitilmagan istilohlar, "bunga ketur", "shunga turur" kabi buzuvchi so'zlar uchraydi. "Notetik harif ekan bu" kabi usmonlixa ta'birlar ham topiladi. Bular "Fitrat o'zbekchasi"ning xususiyatlaridandir" degan mulohazalari komil inson, chin musulmonning mujassam timsoli Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi, uning turli mavzudagi barcha maqolalari tiliga mos, muvofiq keladi (Mahmud V. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2007. – 160 b. – 78-bet).

Domullaning ushbu savoli dramaning asosiy badiiy konfliktini belgilaydi. Domullaning boyga ayni savol bilan murojaat qilishi va Toshmurodga nisbatan "boyvachcha" so'zini ko'llashida kinoya, kesatiq, istehzo aks etadi. Boyning: "Men o'g'lumni o'qutmoqg'a o'ylaganim yo'q" deb javob qaytarishi esa uning dunyoqarashi juda torligini namoyon qiladi. Dramaning xuddi shu o'rnida Turkiston aholisining umumlashma qiyofasi gavdalantirilib, o'lkadagi qoloqlik, turmushda ildiz otgan jaholat sababi ko'rsatiladi. Ilm-ma'rifatni qadrlamaslik, uni egallashga intilmaslik o'lka odamlarini ayanchli ahvolga solib qo'ygani boyning domulla hamda "qatnashchilar"da "o'ruscha o'qig'an, ovro'pocha libos kiygan millatchi musulmon" deb tanishtirilgan ziyoli bilan savol-javobi asnosida ochib beriladi. Domulla: "Ajoyib, sabab nedurki, o'qutmaysuz? Vaholanki, o'qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratudur" desa, boy: "Mani xayolimga dunyoning sababi izzati – boylik. Oxiratga bo'lsa, xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mulldan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boylar chilen (a'zo – A.U.) bo'lub, har kim chilendlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturg'anlar chilen molini qimmat olur, azbaski (chunki – A.U.) chilen iltifotiga olmagan (e'tibor qilmagan – A.U.) odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomaladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur, bildingizmi?" deb aytadi. Boyning ushbu so'zlari ilm-ma'rifatdan bebahrlik, bu dunyoda qozoniladigan izzat-hurmat va oxiratda erishiladigan sharofatning sababi sanalgan ilmga nisbatan bunday hurmatsizlik o'lkani har jihatdan xarob etib, odamlar dunyoqarashini abgor, fikrlashini nochor etib qo'yganini oshkor qiladi (Behbudi M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1997. – 232 b. – 40 – 41-betlar). Albatta, "Padarkush"dagi hech bir personajni

Vilyam Shekspir tragediyalaridagi obrazlar singari to‘laqonli, jonli, ulug‘vor obraz deb bo‘lmaydi. “Padarkush”, badiiy darajasiga ko‘ra, hatto, “Abulfayzxon” (A.Fitrat), “Mirzo Ulug‘bek” (M.Shayxzoda) bilan, Hamza dramalari bilan ham yonma-yon turolmaydi...

Millat tarixidagi ayanchli ahvolni ko‘rsatish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan mazkur dramadagi boy nafaqat Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan davrda, balki barcha zamonda ko‘p uchraydi. U ma‘naviyati qashshoq kimsalarning tipik vakilidir. Boy ma‘naviy majruh ekanligi tufayli diniy va dunyoviy bilimlarni nazariga ilmaydi. Ularga keraksiz, foydasiz narsa, deb qaraydi. Toshmurodning otasi ilm inson hayotida muhim o‘rin tutishi, u har bir odamni ikki dunyo saodatiga erishtiradigan birlamchi vosita ekanini idrok etmaydi. Boy ana shu haqiqatni anglamagani uchun domulloning: “...chilen va boylarning izzatlari vaqtincha va xalqni ko‘zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni bo‘lsa, barcha xalq izzat qilur, ya‘ni mulloni ilmi izzat qilinadur” degan mulohazalariga: “Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur, hatto, musulmonlar nari tursun, o‘rus va armanlar-da izzat qilur” deb e‘tiroz etadi (O‘sha manba. – 41-bet).

O‘z davrining ilg‘or fikrli kishisi, vatan mustaqilligi, xalq ozodligi yo‘lidagi olamshumul tarixiy kurashning faol namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy mustamlaka davri Turkiston o‘lkasi aholisi kundalik maishiy turmushi manzarasini chizish uchun dehqon, cho‘pon, bog‘bon, kosibning emas, ataylab boyning xonadonini ob‘ekt qilib olgani va shu tabaqa vakili hayot mazmunini nimada ko‘rishi, qanday idrok etishiga e‘tibor qaratganining sababi shundaki, oddiy odamlar, odatda, “el-yurt”, “vatan” degan murakkab ijtimoiy-siyosiy mavhumotlarni o‘ylab, bosh qotirmaydi. Dehqon, bog‘bon, kosib uchun har kuni qozoni qaynab, kundalik turmushi o‘tib tursa, kifoya qiladi. Ular mana shu tashvishga ko‘milib, umrguzaronlik qiladi. Olis o‘tmishda ham, “Padarkush” dramasi ilk bor sahnada namoyish qilingan zamonlarda ham turmush shunday kechgan. Hozirgi paytda ham ayni holat davom etmoqda. Bundan keyin ham oddiy odamlar hayotni shu tarzda idrok etadi. “Turkiston yo‘lboshchisi”, “Turkistonning yangilik davri tarixinda yorug‘ bir chiroq”, “Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o‘rin olishga munosib” deb ta‘riflangan Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasida va boshqa bitiklarida “Mana, Turkistonimizdagi biz havas bilan qaraydigan boylarimiz xonadonidagi ahvolni tomosha qilinglar, ularning saviyasi darajasini ko‘ringlar. Biz, musulmonlar, mana shunday g‘oyat ayanchli ahvolga

tushib qoldik. Endi bundan nariga o'tib bo'lmaydi. Bunday xunuk holatdan qutulish chorasini ko'raylik!" deb murojaat qilgan.

Manbalarda temuriylar saltanati inqirozga yuz tutganidan keyin Turkiston o'lkasida ijtimoiy-siyosiy tanazzul boshlanib, jaholat va mutaassiblik kuchayib ketgani ta'kidlanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida ana shu salbiy hodisa jamiyatda qanday achinarli holatni yuzaga keltirgani, aksariyat odamlar islom shariatiga, uning insonparvarlikka asoslangan tartib-qoidalariga amal qilmasdan qo'ygani, chunonchi giyohvandlik, bachchavozlik, fahsh ishlar bilan shug'ullanish, poraxo'rlik, ta'magirlik odatdagid holga aylangani hamda va ayni holat ularni juda achinarli, xunuk oqibatlariga giriftor etgani diqqat markaziga qo'yiladi. O'z zamonasining ilg'or fikrli kishisi sifatida ko'z o'ngida kechayotgan muhim voqealarni ziyraklik bilan idrok qilgan muallif "Padarkush"da ma'naviy mayib bo'lib qolganligi tufayli odamlarning e'tiqodi ham zaiflashganiga e'tibor qaratadi. Domulla Toshmurodning tarbiyasi, odob-axloqi g'oyat xunuk ekanligini ko'rib: "Shariat ilmi va zaruriyati diniyani bilmoq uchun boyvachchani o'qitmoq, albatta, sizg'a lozimdur" desa, boy uning ushbu fikriga: "Unga shariat ilmini o'qitmakni lozim bilmayman. Chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski davlatim anga yetar" deb e'tiroz bildiradi. Domulla boyga: "Xat-savodi yo'q odam hech nimaga yaramaydur. Shuning uchun o'g'lingizni maktabda o'qitib, xat-savodli qiling" deb maslahat bersa, Toshmurodning otasi unga: "Bu fikringiz g'alat. Chunki mani savodim yo'q. Bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman" deb javob qaytaradi. Bundan boy o'zining o'qimaganligi, savodsiz ekanligidan afsuslanmasligi, buni ma'lum qilishdan-da, zarracha uyalmasligi, xijolat tortmasligi, istihola etmasligi, aksincha savodsiz bo'lsa-da, shaharning katta boylaridan ekanligini aytib, maqtanishdan huzur qilishi, chunki u takabburlik, manmanlikning cho'qqisiga chiqqanligi, uning dunyoqarashi shu darajada tor, ma'naviyati tuban ekanligi ayon bo'ladi. Bunday kimsalar, o'z-o'zidan aniqki, pand-nasihat, o'gitga quloq solmaydi. Millatparvar muallif dramaning ayni o'rnida Turkiston o'lkasidagi aksariyat boylar na insoniylik, na diniy, na vatanparvarlik jihatidan havas qilishga, o'rnak olishga arzimastligini ochiqalaydi. Domulla: "Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo'lubsiz. Ammo endi boy bo'lmoq nari tursun, faqat ro'zg'or o'tkarmoq uchun ham ilm kerak. Ko'ramizki, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani,

yahudiy va boshqa ajnabiylar qo‘lig‘a o‘tdi. Muni sababi, bizlarning o‘qimag‘onimizdur. O‘qumag‘on boyvachchalarni ko‘ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo‘lur. Binobarin, o‘g‘lingizni o‘qutmoqni sizga taklif qilurman” deganida, boy qahr bilan: “Ey, domullo! Siz manga tahqiqchimi? O‘g‘ul – maniki, davlat – maniki! Sizga nima? O‘quganni biri – siz, yemoqqa noningiz yo‘q. Shu holingiz ila manga nasihat qilursiz...” deb uning foydali maslahat, jo‘yali gaplarini inkor etadi.

O‘z-o‘zidan ayonki, “Sizga nima?”, “Sanga nima?” tarzidagi negativ e‘tirozlar odamlarimiz ongida turmushdagi voqea-hodisalarga nisbatan salbiy munosabat shakllanishini ta‘minlaydi. Domullaning: “Ko‘ramizki, yigirma-o‘ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo‘lig‘a o‘tdi” degan so‘zlarida jadidlarning dilidagi alami, iztirobi, tilidagi faryodi, nolasi aks etadi. Ulug‘ alloma bosqinchi mustamlakachilarga barcha zamonda hamtovoq, sherik bo‘lib yuradigan bu g‘ayridin qavmlarning Turkiston o‘lkasida qilayotgan g‘ayriinsoniy xatti-harakatlari, makr-hiylalarini urg‘ulash orqali ularning barcha amallari tajovuzkor, makkor, qallob ota-bobolaridan meros bo‘lib o‘tib kelayotgan rasmlar ekaniga ishora qiladi. Turkiston fojiasi sababchilari umumlashma obrazi bo‘yning: “Mani xayolimga (mening fikrimcha – A.U.) dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga bo‘lsa (qiyomatda esa – A.U.) xudoning qilgan taqdiri bo‘ladi” deyishi uning din to‘g‘risidagi tushunchasi, tasavvuri ham g‘oyat g‘arib, sayoz ekanini ma‘lum qiladi. U shu bois oxirat – qiyomatning borligiga, o‘sha kunda har bir odam yaxshi amallari uchun mukofotga erishishi, yomon amallari uchun jazoga tortilishiga beparvo qaraydi yoki u bu haqiqatni bilmagani holda, hayot kechiradi. “Padarkush”da diqqat qaratilgan voqelikni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Vadud Mahmud turmushdagi mavjud ahvolga: “Turkistonlilar qorni bilan yuragini bir-biridan ayira olmayturg‘on holatga tushgan” deb baho bergan (Mahmud V. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2007. – 160 b. – 142-bet). Asarda Turkistondagi aksariyat odamlar, garchi o‘zini musulmon sanasa-da, diniy va dunyoviy ilmlarga yuzaki qarashi tufayli ma‘naviy qashshshoq bo‘lib qolgani alohida urg‘ulanadi va bo‘yning xonadoni misolida bu holat millat uchun mislsiz fojia ekani ko‘rsatiladi. Dramada Turkiston tanazzuli, kishilar kundalik turmushi, dunyoqarashidagi xunukdan-xunuk manzara, holat avvalo, odamlarning ong-saviyasi, hayotga munosabati, islom dini mohiyatini

anglashi, idrok qilishi zaifligidan kelib chiqqani, mahalliy aholi turmushidagi barcha kamchilik, nuqson va illatlar, birinchi navbatda, aynan shu muammo bilan bog'liqligiga diqqat qaratiladi.

Turkistondagi jadidchilik harakati rahnamosi sifatida jo'shqin faoliyat olib borgan Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi yashagan zamon hodisalariga, buxoriylar, termiziylar, xorazmiylar, farg'oniylar tug'ilib o'sgan zamindagi fojeiy ahvolga chuqur achinish bilan qaragan va yurtdoshlari, eldoshlarining insoniyatni ikki dunyo saodatiga erishishga muvaffaq aylaydigan muqaddas islom diniga munosabatini ko'rsatib, iztirobga tushgan. Nafaqat Mahmudxo'ja Behbudiy, balki Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy ham, Cho'lpon ham, boshqa ijodkorlar ham o'z asarlarida Turkistonda juda ko'p odamlar islom dini tartib-qoidalariga juda yuzaki qarashi, ularga istar-istamasdan, ko'r-ko'rona amal qilishi, mahalliy aholi turli ko'rinishdagi aysh-ishratga berilganini ko'rsatgan, drama, maqola, hikoya, romanlari uchun asarlarida ayni muammoni asosiy mavzu qilib olgan. Chunki ularning barchasi islom diniga millatni, dunyodagi har bir xalqni ma'naviy kamolotga, farovon turmushga yetaklaydigan eng muhim, eng zarur vosita, deb qaragan. Insoniyat uchun har jihatdan yuksalish dasturi qilib berilgan ilohiy islom diniga hurmatsizlik, unda e'zozlangan ilm-ma'rifatga bepisand munosabat musulmonlarni halokatga eltganini odamlarga ma'lum qilish, tushuntirishga intilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 1997. – 232 б.
2. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: “Шарк”, 1997. – 320 б.
3. Фитрат А. Танланган асарлар: Ж.В. Илмий рисолалар.– Тошкент: “Маънавият”, 2010. – 304 б.
4. Чўлпон. Асарлар: Уч жилдлик. Ж.2. Роман. Ҳикоялар. Сафарнома. Таржималар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 472 б.

Marhabo QO'CHQOROVA,

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori, professor*

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISHI

Mahmudxo'ja Behbudi (1874-1919) milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining liderlaridan biri, birinchi o'zbek dramasi asoschisi, dramaturg, publitsist, darsliklar muallifi, noshir, qozi, mufti darajasiga ko'tarilgan diniy va dunyoviy ilmlarni baravar egallagan katta bilim egasidir. O'zbek jadidchilik harakatining "karvonboshisi" deb ta'riflangan Behbudi hazratlari xalq hayotini maktab, teatr, matbuot va adabiyot vositasi bilan isloh etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu oliy istak va maqsadlari yo'lida ko'pgina ishlarni amalga oshirib, millat ma'naviyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan jadid ma'rifatparvari, millat oydinidir. Behbudiyning shogirdi, zamondoshi va hamyurti Vadud Mahmud Samarqandiy uning vafotiga bag'ishlab yozgan ta'ziyanomasida shunday haqli e'tirof etadi: "Mahmudxo'ja o'ldi... (Ul kim edi?)

Mahmudxo'ja Turkiston degan o'lkaning boshlig'i edi. Mahmudxo'ja Turkistonning yo'lboshchisi edi. Mahmudxo'ja o'zbek Turkiston bolasi ekanligini tushungan bir yigit edi. Shuning uchun u bizga Turkistong'a har navi edi.

Mahmudxo'ja Turkistonning yangilik davri tarixinda yorug' bir chiroq edi. Mahmudxo'janing niyati Turkiston tarixinda mumtoz o'rin olishga munosib mir'otdir"¹¹. Behbudi o'zbek millati uchun Vadud Mahmud ta'riflaganidek, "o'lkaning boshlig'i", "Turkistonning yo'lboshchisi", "Turkistonning har nav'i", "yorug' bir chiroq", "munosib mir'ot" edi. Behbudiyning yana bir zamondoshi Sadriddin Ayniy "Behbudi hazratlari to'g'risida xotiralarim"da uning ruhiy va tashqi portretiga shunday ta'rif bergan: "Behbudi hazratlari ko'rinishda g'oyat mahobatlik va salobatlik edi. Ahvolig'a voqif bo'lmag'on kimsa mutakabbir deb gumon qilur edi. Lekin haqiqatda

¹¹ Вадуд Махмуд Самарқандий. Махмудхўжа Бехбудий / Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 233.

muloyim suhbatlik, takallufsiz bir odam edi. O‘z moli haqida bo‘lsin, xalq moli bo‘lsin, iqtisodg‘a ko‘p rioya qilar edi va ijtimoiy ahvolimizning tuzalishi uchun iqtisodg‘a rioya qilishni birinchi shartlaridan bilar edi. Shuning uchun to‘y va azalarg‘a bo‘laturon isroflarni o‘zi butun tark qilg‘on va so‘zig‘a quloq solaturg‘onlarni ham tark qildirg‘on edi”¹². Ayniy domlaning fikrlariga hamohang ravishda Hoji Mu‘in “Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi” maqolasida shunday fikrlarni yozib qoldirgan: “Behbudiy afandi halim, ziyrak, g‘oyat zakovatli va quvvai hofizasi zo‘r bo‘ldig‘idek, so‘zg‘a-da nihoyat darajada usta edi. Shuning uchun aning suhbatlari g‘oyat lazzatli va istifodali bo‘lar edi. Behbudiy afandi har vaqt “kalom un-nos ‘ala qadri u‘quli ham mazmunicha musohiblarning holig‘a va aqlig‘a qarab o‘shanga munosib so‘ylasha edi. Ba‘zan mutoyiba ila majlisdoshlarini kuldura edi. Aning suhbatida bo‘lg‘on kishi ruhlana, shodlana va aning oldindan aslo turg‘usi kelmas edi”¹³. Behbudiy zamondoshlarining barchasi uning salobatli, ziyrak, quvvai hofizasi kuchli, halim, dilkash suhbatdosh, so‘zga usta, bilimli, ma‘rifatli inson bo‘lganini ta’kidlashgan.

Adibning hayoti va ijodi ayniqsa, Istiqlol davri adabiyotshunosligida nihoyatda jadal o‘rganilib, yangi tadqiqotlar, dissertatsiyalar, risolalar yozildi, shuningdek, Behbudiy asarlarining qayta to‘ldirilgan nashrlari amalga oshirildi. O‘zbekistonda behbudiyshunoslik sohasida S.Qosimov, A.Aliyev, M.Rahmonov, Sh.Turdiyev, N.Karimov, B.Nazarov, I.G‘afurov, B.Qosimov, S.Ahmedov, H.Boltaboyev, H.Saidov, Sh.Rizayev, Z.Abdurashidov, P.Ravshanov, D.Alimova, D.Rashidova, Z.Ahrorova, Sh.Ochilov, N.Namozov kabi olimlarning tadqiqotlari yaratildi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, xorijdagi behbudiyshunoslik ham o‘zbek behbudiyshunosligidan aslo kam emas. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning birgina “Padarkush” milliy fojiasi o‘nlab xorijlik turkolog olimlarning tadqiqotlarida tadqiq etilgani fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, “Padarkush” milliy fojiasi va ilk o‘zbek dramaturgiyasi haqida Zaki Validiy To‘g‘on, Tohir Chag‘atoy, Ibrohim Yorqin, Mehmet Saroy, Nodir Davlat, Temur Ko‘jao‘g‘li, Germaniyada Johannas Benzing, Boymirza Hayit, Ingeborg Baldauf,

¹² Садриддин Айний. Беҳбудий ҳазратлари тўғрисида хотираларим / Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 241.

¹³ Ҳожи Муъин. Буюк устозимиз Беҳбудий афанди / Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 250-251.

Amerikada Edvard Olvorot, Rossiyada A.N.Samaylovichlar tadqiqot va maqolalar yaratishgan.

Mahmudxo'ja Behbudiylar tarjima holini yoritgan barcha olimlar Hoji Mu'in Shukrullo ma'lumotlariga asoslanishadi. B.Qosimov ta'biri bilan aytganda, "Hoji Mu'in (1883-1942) Behbudiyni yaqindan bilgan, uning e'tiboriga sazovor bo'lgan hamkasabasi, shogirdi edi"¹⁴ – deb ta'kidlaydi. Behbudiylarshunos Sirojiddin Ahmadning "Mahmudxo'ja Behbudiylar. (hayoti, faoliyati, vafoti)" deb nomlangan eng so'nggi yangi tadqiqot bu sohadagi ko'pgina mavhum bo'lib turgan muammolarni ochiq qilgan bilan xarakterli.

Istiqlol davri yillarida ikki katta olim akademik N.Karimov va S.Ahmad tadqiqotlari o'zining mukammalligi va Mahmudxo'ja Behbudiylar hazratlarining hayoti, faoliyati va vafoti muammolarini atroflicha qamrab olgan bilan ahamiyatga ega. Istiqlol davri behbudiylarshunosligi adib hayoti va ijodiga doir ko'pgina muammoli masalalarga yechim topdi. Behbudiylar biografiyasiga doir adib tug'ilgan sana masalasida adabiyotshunosligimizda uch xil qarash mavjud. Bu haqda akademik N.Karimov o'zining "Mahmudxo'ja Behbudiylar. Hayoti. Faoliyati. Taqdiri" monografiyasida (Toshkent, Akademnashr, 2022) shunday deydi: "Shunday qilib, Behbudiylar hayoti va adabiy faoliyati bilan shug'ullangan adabiyotshunoslarning bir qismi esa u 1874 yilda, ikkinchi qismi esa 1875 yilda dunyoga kelgan deb hisoblaydilar"¹⁵. Olim juda to'g'ri ta'kidlaganidek, Behbudiylarning tavallud sanasi haqida 1873, 1874, 1875 yillar olimlarimizning tadqiqotlarida ko'rsatib kelinadi. Bunday chalkashlikning kelib chiqishiga sabab, Behbudiylarning qizi Parvin Behbudiylar otasining tavallud sanasini "1873 yil Samarqand shahrining Yomini qishlog'ida" deb ko'rsatishida. (adabiyotshunos Solih Qosimov bilan suhbatida).

S.Ahmad esa o'zining "Mahmudxo'ja Behbudiylar. Hayoti, faoliyati, vafoti" (Toshkent, Info Capital Books, 2024) monografiyasida Behbudiylarning tavallud sanasini keskin ravishda 1874 deb ko'rsatadi. Albatta har bir olim o'zi to'g'ri deb belgilagan tavallud sanani ma'lum asoslarga tayanib o'z fikrlarini isbotlaydi. Masalan, bu asoslar: Turkiston maxfiy bo'limining hujjati; Hoji Mu'in ma'lumoti; Behbudiylarning qizi Parvin bergan ma'lumot; "Izvestiya TURSİK" va boshqa nashrlarni asos qilib olishadi. Akademik N.Karimov bu haqda

¹⁴Qosimov B. Milliy uifonish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 217.

¹⁵ Karimov N. Ma'xudxo'ja Behbudiylar. Xa'iti. Faoliyati. Taqdiri. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 13.

maxsus to'xtalgan. Behbudiylar B.Qosimov, A.Aliyev, Sh.Turdiyev, N.Karimov kabi olimlar yakdil ravishda Behbudiylarning tavallud sanasini 1875 deb ko'rsatishadi. "O'zbekiston sovet ensiklopediyasi"da ham xuddi shu sana belgilangan. Biz ham bu masalada shu sanani to'g'ri deb qabul qilamiz.

Mahmudxo'ja Behbudiylar 1875-yilning 30-yanvarida Samarqand yaqinidagi Yomini mahallasida tug'iladi. Otasi Behbudiylarxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik bo'lib, Yassaviy avlodlaridan ekani ma'lumotlarda keltiriladi. Ona tomonidan esa Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod davrida Urganch shahridan Samarqandga ko'chib kelgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Behbudiylarning birinchi bobosi Solihxo'ja va ikkinchi bobosi Niyozxo'jadir. Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lgan shajaraga mansub, Qori Niyozxo'ja qorilar yetishtirish uchun Amir Shohmurod tomonidan Samarqandga keltirilgan. Behbudiylarning ota-bobolari qori, ya'ni hofizi Qur'on bo'lishgan. Ular asosan, qorilik va imomchilik bilan shug'ullanishgan.

Ma'lumotlarga ko'ra (Hoji Mu'in Shukrullo va qizi Parvinaning bergan ma'lumotlariga ko'ra) Mahmudxo'ja Behbudiylar 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib, savodini chiqaradi. Otasi Sultonxo'ja unga "Qur'on"dan ozmi-ko'pmi suralarni yodlatadi. Shu tariqa yosh Behbudiylar 3-4 yil ichida "Qur'on"ni xatm qiladi. 15 yoshida tog'asi mullo Odil tahsilida arab tili sarf, nahvdan "Kofiya", "Sharhi mullo", mantiqdan "Shamsiya", fiqxdan "Muxtasar ul-viqoya"ning birinchi daftari hamda "Hoshiya"ni o'qib o'rganadi.

Behbudiylarning o'z ma'lumotiga ko'ra, u tog'asi Mullo Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsil oladi. Behbudiylar oldiniga Buxoro madrasasida, so'ngra Samarqand madrasasida ta'lim oladi. Har ikki madrasadagi mullalar, qozilar, imomlar bilan ko'pgina masalalarda kelishmay, ularning badbin kayfiyati va johilliklariga chidamaydi. Ota-onasi olamdan o'tgach, Mahmudxo'ja tog'alari va ammalari qaramog'ida qoladi.

Behbudiylar Sharofat ismli qiz bilan oila qurib, to'rt farzand ko'radi. Bular, Mas'udxo'ja, Maqsudxo'ja, Matlubxo'ja ismli o'g'illar va Surayyo (Parvina) qiz. Birinchi farzandi olamdan o'tadi. Otasi Sultonxo'ja Behbudiylarning boshini ikki qilgach, 54 yoshida vafot etadi. Olimlarning ma'lumot berishicha, onasi otasidan oldin erta vafot etgan. Shu vaqtgacha onasining vafot yili aniqlanmagan.

Ilk farzandidan ayrilish Behbudiylar qattiq ta'sir qiladi. U bu tushkunlik, g'am-kulfatdan qutilish uchun Haj safariga yo'lga

otlanadi. Buxorolik do'sti Xo'ja Baqo hamrohligida Haj amalini qilish uchun Makkaga yo'l oladi. Haj safari bahonasida Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiyaning Istanbul shahrida, undan Misr, Hijozga boradi. U do'sti bilan birga bu shaharlar va unda yashovchi millatlarning madaniyati, odamlari, iqlimi, taraqqiyoti bilan tanishadi. Ayniqsa, Turkiya shahridagi mehmonxonalar, transport vositalari uni hayajonga soladi. Taraqqiy qilayotgan mamlakatlar va shaharlardan olam-olam taassurot oladi. Suriyadagi qadimgi yodgorliklar, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilib, dunyoning yangi yerlari va odamlari hayoti bilan tanishadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Makkada Haj ibodatini amalga oshirib, Madina, Misr, Istanbul shaharlaridagi maktab va maorif masalalari bilan ham qiziqadi. Onga, dunyoqarashi ochiq inson o'laroq Behbudiy bu mamlakatlar va shaharlarda yashayotgan odamlarning dunyoqarashi, ta'lim sistemasi, matbuoti bilan tanishadi. Tabiiyki, u o'lkalardagi taraqqiyot mujdalarini o'z yurtiga olib kelishni yuragiga qattiq tugib keladi. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, ta'lim-tarbiya ishlarining nihoyatda qoloqligini ko'rib, afsus chekadi. S.Ahmad yozganidek: "Buyuk ustoz Mahmudxo'ja Behbudiy esa safardan tom ma'noda vijdoni uyg'onib, millat vijdoniga aylanib qaytdi. Qaytganda ham bo'sh kelmadi, Turkiya va Arabiston hamda Misrdan talaygina kitob va to'plamlarni olib keldi..."¹⁶.

Behbudiy haj safaridan qaytib kelgach, uning safarlar va taassurotlar jo'sh urib, vatanda muqim qolishni istmay qoladi. Yana xorijga safarlar uyushtirib, boshqa xalqlar va mamlakatlarning hayotini, maorifini, madaniyatini o'rganishni, istaydi. Ana shu ichki istaklar tufayli Behbudiy Rusiyaga safarga o'tlanadi. Mustabid tuzumning maxfiy xizmati tashkilotlari tomonidan hibsga olinib, noqonuniy ravishda hibsdan saqlanadi. Ammo unga hech qanday ayb qo'ya olmagach, uni qo'yib yuborishadi. Sayohatlar chog'ida tataristonlik ulamolar, taraqqiyparvar odamlar bilan tanishish baxtiga muyassar bo'ladi. "Ulfat", "At-Tilmiz" gazetalarining noshiri va muharriri Abdurashid qozi Ibrohimov, muharrir Muso Jorulloh Begiyev kabilar bilan yaqindan tanishib, ular bilan fan, madaniyat, maktab, maorif, teatr, matbuot, taraqqiyot haqida fikr almashadi.

Behbudiy hayotida turkiy xalqlarni g'aflat uyqusidan uyg'otgan, jadidchilik harakatining ma'naviy otasi Ismoilbek Gasprali bilan

¹⁶ Аҳмад С. Маҳмудхўжа Бехбудий. (хаёти, фаолияти, вафоти). – Тошкент: Info kapital Books, 2024. – Б. 19.

tanishish, do'stona suhbat va muloqatlari uning dunyoqarashini tamomila yangi o'zanlarga burib yuboradi. Bundan tashqari, ma'rifatparvar o'zbek oyдини Behbudiy hazratlari turkiyalik ziyolilar Hamidulloh Subhibek Tangriovlar bilan do'st tutinadi. Turk adabiyotining yirik vakillari Rijoij Akramzoda, Nomiq Kamol, Ziyoposhsha, Abdulhaq Homid asarlarini o'qib, ta'sirlanadi. Shu bilan birga Abu Lays Samarqandij, Abdurahmon Jomij, Alisher Navoij kabi mumtoz shoirlar ijodini ham qattiq o'qib-o'rganadi. Amir Temur, Shohruh mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abdullaxon kabi temuriylar va shayboniyxonlar tarixini ham jiddij o'rganadi. Rus oydinlari N.S.Likoshin, A.Gesket, N.P.Ostroumov, V.Vyatkin kabilar bilan ham o'zaro do'stona aloqalar o'rnatadi.

Behbudij millat va millat kelajagi, taqdiri haqidagi dardchil fikr-mulohazalarini "Ulfat", "Vaqt", "Turkiston...", "Islom dunyosi", "Siroti Mustaqim" nashri sahifalarida e'lon qilib bordi. Behbudij o'zining ijtimoiy-siyosij dunyoqarashi va ma'navij dunyosini boyitib, Turkistonda yangilanishlar qilishni istaydi. O'zi anglagan haqiqatlarni millatiga anglatmoq istaydi.

Mahmudxo'ja Behbudij hazratlari "Haq olinur, berilmas" shiori ostida Sharq va G'arb ma'rifatini, madaniyatini, taraqqiyotni solishtirib, adolatli xulosalarga kela bildi. Shuning uchun Turkiston musulmonlariga o'zining "Haq olinur, berilmas" degan chaqirig'ini dadil o'rtaga tashladi.

Adib o'z mehnat faoliyatini Chashmaob volostida qozilik qilayotgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida ish boshlaydi. U dastlab mirzalik qilib, fiqh-huquqshunoslik sohasidagi ilmini oshirib, tajriba to'playdi. Tog'asining oldida ikki yil ishlaydi, tog'asi qozilikdan ketgach, Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o'g'li qabulida mirzalik ishini davom ettirishi uning dunyoqarashini yanada kengaytirdi. Qozixonada ishlash jarayonida millatdoshlari va Turkistonning ijtimoiy-siyosij ahvoli, qoloqliklari, ma'navij-axloqij noqisliklar, axloqsizliklariga o'z ko'zi bilan guvoh bo'ladi. U bu sohadagi xizmatlari uchun mufti, ya'ni fatvo beruvchi unvonini olishga muvaffaq bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudij o'z zamondoshlari – Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ismoilbek Gasprali kabi ziyolilar bilan tanishib, bosqinchilik siyosati makrini anglaydi va shuning uchun ham millat ongini ochish uchun o'z faoliyatini boshlaydi. Turkiston yoshlarini xorijga o'qishga yuborish masalasini o'rtaga tashlaydi va ularni chet

ellarga ta'lim olish ishiga bosh-qosh bo'ladi. Ularni ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan ta'minlaydi. Jumladan, Behbudiy Abdusalom Azimiyning xorijda tahsil olishi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatib, uni Ismoilbek Gasprali bilan uchrashib, so'ngra, Misrda o'qishini maslahat beradi. Azimiy "Behbudiy haqida xotira va taassurotim" maqolasida ustozning xizmatlarini hamda uning ulkan ma'naviy siymosini xotirlab, vafotidan so'ng shunday yozadi: "Nashri maorif" to'g'risida vatanimizning birinchi qahramoni Behbudiy afandidir.

Taraqqiy va takomul ham fazoili bashariya to'g'risida jismonan va molan fidokorlik ko'rsatgan yo'l boshchidir.

Behbudiy afandi butun quvvati fikriya va moliyasini taraqqiy va takomil yo'lida sarf etgani kabi va o'zini-da xalqi uchun qurbon etdi"¹⁷.

Ilg'or ziyoli va murabbiy sifatida Behbudiy fransuz, rus, yahudiy va boshqa xalqlarning maktab tizimini o'rganib chiqadi. Turkiston xalqlari biqiq bir sharoitda faqatgina diniy ilmlar bilan chegaralanib qolayotgani, dunyoviy ilmlarning o'qitilmayotgani, tuzuk-quruq darsliklar, maktab dasturlari tuzilmaganini chuqur anglab yetgan Behbudiy hazratlari xorijiy safarlarda chog'ida yangi zamonaviy darsliklar bilan tanishib, ulardan namunalarni sandiqlarga solib, ona vataniga olib keladi. Avvalo madrasalardagi va eskicha maktabdorlarning o'qitish usuli va yangi zamonaviy fanlarning deyarli yo'qligini anglab yetib, Samarqandda usuli jadid maktablarini ochadi. Uning maktabida ta'lim olgan o'quvchisi Abdulhamid Azamatning bergan ma'lumotiga ko'ra, "Samarqand yoshlari o'rtasida Behbudiyni bilmagan odam yo'qdur. Mustabid hukumatning qattig' nazorati, marhamatsiz taftishlari hukm surgon bir vaqtda ul eski shahardagi o'z hovlisini muallim Abdulqodir Shakuriyning usuli jadid maktabig'a, o'z himoyati ostida uni bir necha yil yoshatdi. Samarqandda yetishgan yoshlarning barchasi mazkur maktabdan bahra oldilar"¹⁸. Behbudiy usuli jadid maktablarida shaxsan o'zi geografiya va tarixdan dars beradi. Turkiya va boshqa mamlakatlardan keltirgan risola va kitoblardan yosh o'qituvchilarga berib, ilm-ma'rifat tarqatadi. Juda katta qiyinchiliklar va mashaqqatlar bilan Behbudiy kutubxona tashkil qilishga muvassar bo'ladi. Afsuski, qora xalq kutubxonani kitob

¹⁷ Абдусалом Азимий. Бехбудий ҳақида хогира ва таассуротим / Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 244.

¹⁸ Абдуҳамид Азамат. Бехбудий ҳақида хотираларим / Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 244-245.

o'qish maskani emas, to'rtta-beshta og'aynilar yig'ilishib, gurunglashib o'tiradigan joy deb tasavvur etib, choy ichib, gurunglashadigan maskanga aylantirishadi. Bu xalqning qoloqligi va kitob o'qishdagi madaniyatsizligini, kitobxonlik darajasi, saviyasi anchayin pastligini yaqqol ko'rsatadi. Zero, yuqorida tilga olganimiz Abdulhamid Azamatning xotirasida "Lekin bu vaqtlarda xalq bu qiroatxonag'a mutolaa uchun emas, balki choy ichishib, chaqchaq qilishib (gaplashib) o'turmoq uchungina yig'ilarlar. Gazeta, jurnal va kitob o'qiyturg'onlar esa juda oz ko'rinar edi" - deb yozadi¹⁹.

Behbudiy Turkiston yoshlari o'rtasida shu darajada mashhur bo'ladiki, u haqda xotira yozgan zamondoshlari va shogirdlari Turkistonda yangi jadid maktablarining asoschisi, teatr asoschisi, matbuot asoschisi, yoshlar dunyoqarashida "fikriy inqilob" qilgan Ustoz sifatida alqanadi. Zero, Hoji Mu'in shunday yozadi: "Shuni ham unutmayinki, mazkur jug'rofiya kitobining "Tatbiqoti diniya" faslinda: "Ba'zan eski xurofot va isroliyat so'zlari bizning tafsir kitoblarimizgacha kirib ketgan" mazmunidagi jumlar o'shal vaqtda manim fikrimda zo'r o'zgarishlar yasadi, ya'ni o'shal jumla meni birinchi daf'a fikriy inqilobg'a uchratdi. Men o'shal kundan e'tiboran har bir eski va yangi kitoblarni diqqat bilan, muhokama ilan o'qiyturg'on bo'ldim.

Mana shuning uchun ayta olamanki, mening tavse'i ma'lumotimga turk-tatar matbuoti sabab bo'lg'onidek, meni birinchi martaba fikriy inqilobg'a uchratg'on odam Behbudiy hazratlarining mazkur bir-ikki jumla so'zidir. Men mazkur tarixdan e'tiboran Behbudiy afandig'a chin ko'ngil ila muxlis bo'ldig'imdek, o'sha vaqtdan boshlab mavqei kelganda, har yerda ani mudofaa etaturg'on bo'ldim"²⁰.

Behbudiy Samarqandda ilk bor "Samarqand" gazetasiga asos soladi. Ammo gazetaning 44-soni chiqqach, moddiy-iqtisodiy tanqislik tufayli gazeta yopiladi. Shundan so'ng, uning o'rniga "Oyina" nomli haftalik jurnal (majmua) chiqara boshlaydi. "Oyina" ziyolilar orasida katta shuhrat topadi. Jurnal ikki yil davomida chop etiladi. Taxminan jurnalning 68-sonidan so'ng, bu jurnalning ham bosmadan chiqishi to'xtaydi.

¹⁹ Абдусалом Азимий. Бехбудий ҳақида хотира ва таассуротим / Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 246.

²⁰ Ҳожи Муъин. Буюк устозимиз Бехбудий афанди / Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 250.

Behbudiyning adabiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy maqolalari, xotiralari, safarnomalari “Samarqand”, “Oyina”, “Turkiston viloyatining gazetisi”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Turon”, “Hurriyat”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ulug‘ Turkiston”, “Najot”, “Tirik so‘z”, “Tarjumon”, “Vaqt”, “Sho‘ro”, “Ulfat”, “Irshod”, “Toza hayot” kabilarda yuzlab badiiy-publitsistika namunalari dunyo yuzini ko‘rgan.

“Padarkush” milliy fojiasi xorijlik tadqiqotchilar nigohida: O‘zbek jadid adabiyotining “karvonboshisi” Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” milliy fojiasi nafaqat o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan, balki, o‘nlab xorijlik turkolog olimlarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan. Jumladan, “Padarkush” milliy fojiasi va ilk o‘zbek dramaturgiyasi haqida Zaki Validiy To‘g‘on, Tohir Chag‘atoy, Ibrohim Yorqin, Mehmet Saroy, Nodir Davlat, Temur Ko‘jao‘g‘li, Germaniyada Johannas Benzing, Boymirza Hayit, Ingeborg Baldauf, Amerikada Edvard Olvorot, Rossiyada A.N.Samaylovichlar ijobiy fikrlar bildirishgan. Mazkur tadqiqotchilar ichida Amerikalik o‘zbekshunos E.Olvortning “Ilk O‘rta Osiy dramasi “Padarkush”da metafora” nomli tadqiqoti e‘tiborga molik tadqiqotlardan sanaladi. Shuningdek, turkiyalik turkolog olim Temur Ko‘jao‘g‘lining “Turkistonda turkcha ilk teatr asari: Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (Baba katili) pyesasi (1913)” maqolasi ham ana shunday tadqiqotlardan biridir. Olimning bu maqolasi “Türklük Araştırmaları Dergisi” da 2004-yil, 15-sonida chop etilgan.

Temur Ko‘jao‘g‘lining mazkur maqolasi “Kirish”, “Turkistonda Teatr va Padarkush”, “Padarkush” so‘zining aytilishi va yozilishi”, “Padarkush”dan oldin Turkistonda modern teatr”, “Padarkush”ning sahnalashtirilishi”, “Padarkush” pyesasining ta’siri”, “Padarkush”ning mazmuni va Metafora (majoz)”, “Chorlik va Sovet davrida “Padarkush” dramasi ijobiy-salbiy munosabatlar”, “Turkiya, Yevropa va ABDda “Padarkush” pyesasiga ijobiy bahslar”, “Padarkush” pyesasining nashrlari”, “Padarkush”ning tili va yozilishi” deb nomlangan jami “Kirish” bilan hisoblaganda o‘n bir qismdan iborat. Shuningdek, maqola so‘nggida Temur Ko‘jao‘g‘li tarjimasida “Padarkush” milliy fojiasi “Baba katili” nomi bilan Turkiya turkchasiga tarjima qilingan.

Olimning Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy shaxsiyati hamda “Padarkush” milliy fojiasi haqida bildirilgan ba’zi bir original fikrlariga diqqat qaratamiz: *“Gaspirali İsmail Bey (1851-1914)”in*

öncüğünde 19. yüzyılın sonlarına doğru bütün Türk Dünyasını sarmış olan yenileşme (Ceditcilik) hareketinin Türkistan'daki en önde gelen önderlerinden biri Mahmud Hoca Behbudı (1875-1919)dir”²¹

“... Avrupa örneğindeki modern tiatronun doğuşu ise, ancak Türkistan'daki Cedit (yenileşme) döneminde mümkün olabilmiştir. İşte, kendisi Türkistan'daki Ceditcilik akımının babası sayılan Mahmud Hoca Behbudı'nın Avrupa örneğindeki ilk modern tiatro örneğini de yazmışsa da olmasına bu yüzden şaşmamak gerekir”²²

“İşte bu öğeleri gözönünde neden bulunduran Edward Allworth **Pederküş** (Baba katili) piyesindeki “öz babasının ölümüne neden olma” motifini edebiyatta metafor (mecaz)un kullanılışı olarak yorumlamaktadır”²³.

“Allworth bu piyesi aynı zamanda alegorik bir eser olarakda bitemler. Gerçekten, bup piesteki kişilerin adları da Allworth' un işaret ettiği alegoriyi desteklemektedir. Piyenin olumsuz tipi olan **Bay** (Zengin, Bey) “eğitim-öğretim'i dışlayan zenginleğin (Bay'ın) bir gün nasıl yok olacağını gösteren “tanrisal adeletin yalnızca bir uygulayıcısı”dır, yani Allah'ın buyrugunu yerine getirir. Piyesteki başka kişilerden etme görevini Taşmurat ve Tanrikul'a verir”²⁴.

Xullas, Temur Ko'jao'g'li mazkur tadqiqotida o'zbek behbudiyshunoslari va jadidshunoslaridan B.Qosimov, Sh.Rizayevlarning tadqiqotlaridan nihoyatda unumli foydalangan. Shuningdek, B.Qosimov nashrga to'plab, tayyorlagan, kirish so'zi bilan chop etilgan “Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar”iga suyanadi.

Muhimi, katta turkolog olim Temur Kojao'g'li o'zidan oldin Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi bo'yicha tadqiqot yaratgan o'zbekshunos olim Edvard Olvortning o'nlab tadqiqotlariga suyanib mulohaza yuritadi. Tadqiqotchi Z.Mirzayeva o'zbek jadid adabiyotining Amerikada o'rganilishi bo'yicha tadqiqot yaratib, Edvard Olvortning “*Murder as Metaphor in the First Central Asian Drama*” tadqiqotiga ham to'xtalib, hatto mazkur maqolani ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girib, “Jahon adabiyoti” jurnalida chop ettirdi²⁵.

²¹Timur Kocaoglu. Türkistan'da türkçe ilk tiatro eseri: Mahmud Hoca Behbudı'nın “Pederküş” (Baba katili) piesi (1913) // *Türklük Araştırmaları Dergisi* 2004 yıl, Sayı 15. – S. 1.

²² O'sha manba. – B. 2.

²³ O'sha manba. – B. 7.

²⁴ Timur Kocaoglu. Türkistan'da türkçe ilk tiatro eseri: Mahmud Hoca Behbudı'nın “Pederküş” (Baba katili) piesi (1913) // *Türklük Araştırmaları Dergisi* 2004 yıl, Sayı 15. – S. 7.

²⁵ Олворт Э. Биринчи ўзбек драмаси (таржимон З.Мирзаева) // Жаҳон адабиёти. 2009. №8.-Б. 107-113.

Z.Mirzayeva tarjimasidagi E.Olvortning “Birinchii o‘zbek dramasi” maqolasidan foydalanamiz. *“Pyesianing “Padarkush” deb nomlanishiga e’tiroz bildirishi mumkin. Chunki Behbudiyniing tasvirlashicha, Boyning asosiy qotili uning o‘g‘li emas, balki Tangriqul, lekin ikkinchi jihatdan o‘g‘il bu jinoyatning asosiy ishtirokchisi ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Demak, chuqurroq qaralganda, dramaniing bunday nomlanishi asosli e’tiroz uyg‘otmaydi. Jinoyatchini mavhum bir kimsa sifatida ko‘rsatilishida ham muallifning o‘z masadi bor. U dramada faqat otaniing fojiali taqdiri misolida majozii ravishda ota-ona. Ona Vatan va Turkiston musulmonlariining qismatiga hamishora qiladi. Agar jamiyat mustamlaka zanjiri ostida yashasa, jaholat, nodonlik avj olsa, buniing uchun kim aybdor bo‘ladi? Muallif bu savolni tomoshabinlar hukmiga havola etadi.*

Fikrni allegoriya, metafora va aniq jonli obrazlar vositasida ifodalash Turkiston adabiiyotida azaldan mavjud bo‘lgan va XX asr boshlarida ham qo‘llanib kelinayotgan badiiiy tasvir vosita (adabiiy an‘ana) lari hisoblanadi”²⁶.

Har ikki olim birinchi o‘zbek tragediiyasi “Padarkush”ni nihoyatda batafsil va katta nigoh bilan tahlil etib berishgan. Xususan, E.Olvort tragediiyada “o‘lim” metaforasini atroflicha badiiiy-estetik tahlil etib bergan. Olim shunday yozadi: *“Ma‘lum bo‘ladiki, “Padarkush”da aynan va ramziiy ma‘noda turli darajadagi o‘lim sabablari metafora sifatida ko‘rinadi. U oila boshlig‘i (fransuzcha Patrie – patriarx – birinchi qabila va urug‘ boshlig‘i)ning o‘limini aks ettirish bilan bevosita madaniiy qoloqlik tufayli asrii Turkiston inqirozga uchraganini, endi bunday yashab bo‘lmasligini oldindan bashorat qiladi. Bir vaqtning o‘zida muallif jamiyatning baxtsizlik, qoloqlik tomon ketishini ko‘rsatish bilan birga, 1900-yillarda tuzilgan Markaziiy Osiyo musulmonlari jamiyatiniing faol a‘zolari parokanda bo‘lib ketganligiga ishora qiladi. O‘z davriining peshqadam adibi, birinchi dramaturgi yuqoridagi nozik mushohadalari orqali turkistonlik yoshlarga millat, jamiyat uchun nihoyatda dolazarb bo‘lgan muhim va jiddiiy muammolarni o‘rtaga tashlaydi”²⁷.*

²⁶ Олворт Э. Биринчи ўзбек драмаси (таржимон З.Мирзаева) // Жаҳон адабиёти. 2009. №8.-Б. 112.

²⁷ О‘sha manba – Б. 112.

E'tiborlisi shundaki, E.Olvortning "Padarkush" tragediyasi yuzasidan qilingan badiiy-estetik tahlillari sotsiologik tahlil bilan birlashib ketgan.

Xorijda Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini tadqiq etgan tadqiqotlar orasida ikki olim Edvard Olvort hamda Temur Ko'jao'g'li yaratgan ilmiy izlanishlar alohida ajralib turadi. Bu tadqiqotlar Xorijdagi behbudiyshunoslikning yorqin manzarasi sifatida bugungi o'zbek adabiy tanqidchiligi hamda behbudiyshunoslik sohasida katta ahamiyatga molik sanaladi. Bugungi o'zbek behbudiyshunoslari xorijlik olimlarni mutassil qiziqtirib kelayotgan jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini o'rganishdan to'xtamadi. Yaqin yillar ichida akademik N.Karimov hamda Z.Abdurashidxonovlar yangi ilmiy tadqiqot va monografiyalar yaratishdi. Xulosa shuki, xorijiy behbudiyshunoslik sohasi ham alohida monografik tadqiqot sifatida o'rganilishga muhtojdir.

Behbudiy badiiy-publitsistikasi xususida: Adibning barcha publitsistik asarlari deyarli yuz yildan so'ng, Hoji Mu'in orzulaganidek, behbudiyshunos S.Ahmad tomonidan nashrga to'plab, izohlar va lug'atlar bilan ta'minlangan holda "Tanlangan asarlar"ining ikki jildligiga kiritilib, yaxlit holda tayyorlanib chop etildi²⁸. Mazkur ikki jildlikka jamlangan publitsistika namunalari janr nuqtayi nazaridan qaralganda, Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining maqola, sayohatnoma, maktub, xat, nutq janrida ijod qilganini kuzatish mumkin. Uning adabiy maqolalarini mavzuiy nuqtayi nazaridan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy, adabiy-tanqidiy, diniy maqola turlariga ajratib o'rganish mumkin.

Xususan, jadid ma'rifatparvari Behbudiyning "Ehtiyoji millat", "...Uf", "Maktablar haqida", "Buxoroda usuli jadid", "Ikki emas, to'rt til lozim", "Yoshlarga murojaat", "Muhtaram yoshlarg'a murojaat", "Haq olinur berilmas", "Bizga isloh kerak", "Turkiston muxtoriyati", "Millatga murojaat", "Samaraqanddan maktub (turkum maqolalar)" kabilar eng mashhurlaridir. Umumiy hisobda Behbudiyning 180 ga yaqin publitsistika namunalari ma'lum.

Taraqqiyparvar va ma'rifatparvar adibning "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida yoshlar turkiy, arab, fors tillarini bilgani holida endi rus va fransuz tillarini ham o'rganishi lozimligi haqida yozilgan.

²⁸ Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Академнашр, 2021. – 512 б; Шу муаллиф. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 312 б.

Maqolada shunday deyiladi: “Arabiy bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo‘ldan ketar. Turkiy va forsiyni keraklig‘icha so‘z yo‘qdur. Yana bir til va xat borki, butun olam bir-biri-la aning ila so‘ylaydur. Ul franse tili xatidir. G‘ayriddinning ilm va xatini o‘rganmoq shariatcha durustdur. Hadisi sharifdan ma‘lum bo‘ladurki, janob payg‘ambar o‘z sahobalaridan Zayd ibn Sobit(g‘a) yahudiy xatini o‘qub-o‘rganmoqg‘a buyurgan ekanlar. Va ul janob amri hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o‘rganib, hazrat payg‘ambarg‘a yahudiylardan kelaturg‘on hatlarni o‘qub berar ekanlar (“Sahihi Buxoriy”, juz 4, sahifa 156)”²⁹. Publitsist har bir fikrini ilmiy dalil, hayotiy fakt, hissiy kechinma bilan yozadi. Jumladan, “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida adib yoshlarni xorijiy tillarni o‘rganishga da‘vat etadi. Xorijiy tillarni, hatto yahudiy tilini o‘rganish ham hadislarda buyurilganini eslab, mashhur muhaddis olim Imom Buxoriyning “Sahih Hadislar”iga murojaat qilib, o‘z fikrini hadisi sharifdagi til o‘rganish haqidagi fikrlar va voqealar bilan dalillab ko‘rsatadi. Behbudiyning bu maqolasi 1913-yilda, “Oyina”ning 20-avgust sonida chop etilgan.

“Yoshlarga murojaat” maqolasida jonkuyar publitsist yoshlarni zamonaviy ilmlarni egallashga da‘vat etadi. Zamonaviy ilmlarni o‘rganish, islom dinini ham mustahkamlashini yozg‘iradi. To‘ylarga sarflanayotgan behuda aqchalarni, farzandlarimizning zamonaviy ilm olishga sarflash lozimligi haqida mav‘izaviy xarakterda maqolada bayon etadi. Binobarin: “Shu ilmi zamoniyni tahsil qilmoq uchun harakat qilmog‘ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to‘y qilganidek, siz-da hatto lozim bo‘lganda mulkingizni sotsangiz-da, o‘g‘lingizni zamoncha o‘qumoqig‘a sa’y qilsangiz. To‘yga isrof qilinturgan aqchalarni o‘qumoq yo‘lig‘a sarf qilsangiz!”³⁰.

Behbudiyning “...Uf” deb nomlangan muammoli maqolada familiya oxirida “...ov” yoki “...uf” qo‘shimchalarining qo‘shilishi haqida yozilgan. U o‘z vatandoshlarini familiyani yozishda musulmoncha uslubda qilaylik deb taklif beradi, masalan: “Mahmudxo‘ja Behbudof emas: “Mahmudxo‘ja Behbudi” va manim o‘g‘lumni mas’udxo‘ja ibn Mahmudxo‘ja Behbudi” deb yozmog‘i

²⁹ Маҳмудхўжа Бехбудий. Икки эмас, тўрт тил лозим / Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 1-жилд. - Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 398.

³⁰ Маҳмудхўжа Бехбудий. Ёшларга мурожаат / Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 423.

lozim kelur”³¹. Behbudiy XX asr boshida familiyaning yozilishidagi muammoni ko‘tarib chiqqani, bilib, his etilib yozilgani ma’lum bo‘lib qoldi. Chunki, sovet davrida musulmon halqlarining familiyalari ham ruschalashib, natijada ulkan muammoga aylanib qolgani haqqirostdir.

Behbudiyning “Turkiston muxtoriyati”ni tashkil etish, Turkiston musulmonlarini birlashtirish, ozodlik haqidagi g‘oyalari “Haq olinur, berilmas” maqolasida aks etgan. U ongi ochiq odam sifatida ozodlik va muxtoriyatning naqadar zarurligini ta’kidlab, mazkur maqolasida o‘z fikr-mulohazalarini dadil bayon etadi. Bu maqola “Hurriyat” gazetasining 1917-yil, 13-iyul sonida bosmadan chiqqan. Muallifning “Ehtiyoji millat” maqolasida esa millatimizni zamonaviy ilmlarni egallashga da’vat g‘oyasi ustivorlik qiladi. U Yevropa mamlakatlaridagi kabi shifokor, huquqshunos, injener, muallim, texnik, savdogarlarni tayyorlash lozimligini uqtiradi. Turkiston xalqlari ana shu ehtiyojga talabi kuchli bo‘layotganiga zamondoshlari diqqatini qaratadi. Behbudiyning deyarli barcha maqolalari vatanparvarlik, millatparlik, ilmparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan.

Behbudiyning iymon-e’tiqod, islomiy odob-axloq haqidagi maqolalari ham talaygina. Jumladan, “Kiyim va tashabaa masalasi”, “Qur’oni karim tarixiga bir nazar”, “Avvalgi musulmonlarda madaniyat”, “Tahsil va safar zamoni va taom”, “Daf’i taaruz va shubha ajnabiy taomi haqida”, “Sag‘irlar haqida”, “Turkistonda maktab, jarida va ulamo” kabi maqolalarni sanash mumkin. Shular orasida “Kiyim va tashabaa masalasi” maqolasida muallif Yevropadan kirib kelgan shlyapa va shapka kabi bosh kiyimlarni kiyish musulmonchilikka xilof deb hisoblamaydi. Bu fikrini isbotlash uchun ko‘plab Muhammad alayhi vassalom va boshqa imomlarning boshqa millatlarning kiyimlarini kiyganliklari haqidagi rivoyat va hayotiy misollarni keltirib, o‘z fikrini dalillab ko‘rsatadi.

Muallifning o‘nlab adabiy-tanqidiy maqolalari, jumladan, “Tanqid - saralamoqdir”, “Tiyotru, musiqiy, she’r”, “Tiyotr”, “Sart” so‘zi majhuldir”, “Tiyotr nadur”, “Eski fikrlardan” kabilarda teatr, adabiy tanqidchilik, “sart” so‘zi atrofidagi bahs-munozaralarga munosabat bildirilib, maqola so‘ngida o‘zining shaxsiy haqqoniy fikrini ifodalagan. Yana bir turkum maqolalari sayohat xotiralaridir.

³¹ Махмудхўжа Бехбудий. “...Уф” / Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 392.

Masalan, “Qasdi safar”, “Istanbul – Bo’sfo’r bo’g’ozi”. Bu sayohat xotiralarida Behbudiy qadami yetgan mamlakatlar va shaharlar haqida o’z fikrlarini yozib qoldirgan.

Behbudiy darsliklari: U jadid maktablari uchun qator darsliklar yaratdi. Jumladan, “Risolai jug’rofiyayi umroniy” (1905), “Risolai jug’rofiyai Rusiy” (1905), “Risolai asbobi savod alifboi maktabi islomiya” (1906), “Madxali jug’rofiyai umroniy” (1907), “Muxtasari jug’rofiyai Rusiy” (1907), “Muntahabi ba xabari ihyoii umumiy” (1907), “Kitobat ul-atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Kitobi muntahabi jug’rofiyai umumiy va namunai jug’rofiya” (1908), “Alifboi maktabi islomiya” (1908) kabi jami 13 ta darslik yaratdi. Mazkur darsliklar yangi usuldagi jadid maktablarida geografiya, islom amaliyoti, bolalar uchun kitob kabi fanlardan asosiy qo’llanma sifatida ishlatilgan.

Behbudiy vafoti bilan bog’liq ma’lumotlar: Behbudiy “Turkiston muxtoriyati”ni sulh yo’li bilan tuzishni qo’llab-quvvatlaydi, matbuotdagi qator chiqishlarida o’zbek, tatar, turkman, qozoq, qirg’iz, srtlarni birlashishga chaqiradi. Uning “Turkiston muxtoriyati”, “Qozoq qarindoshlarimizg’a ochiq xat” kabi ijtimoiy-siyosiy mazmundagi maqolalarida turkiy xalqlarni, musulmonlarni birlashtirish g’oyasi yetakchilik qiladi. Mana qozoq birodarlarga yozgan ochiq xatining boshlanmasi: “Aziz qarindoshlarim! Musulmon birodarlar! Hammangizga ma’lumdurki, Turkiston demak turkiy el bo’lib, mundagi xalqning qozog’i, qirg’izi, sarti. O’zbaki, turkmani, tatari – hammasi turk-mo’g’ul bolalari hamda jahongir Chingizxon va Temurning avlodi yoki og’i-inisidurlar”³². Publitsist pafos bilan yozilgan murojaatnoma, chaqiriqlar uning qator ijtimoiy-siyosiy maqolalarining kompozitsion tuzilishida yetakchi rol o’ynaydi. Bundan tashqari, Behbudiy Turkistonda muxtoriyat tashkil qilish yuzasidan o’zining loyiha proyektlarini taqdim etdi. “Turk adami markaziyat (federalist) fiqrasining maronnomasi”ni, “Turk adami firqasining nizomnomasi”ni tuzdi.

Uning say’i harakatlari tufayli 1917-yil 26-noyabrda Qo’qonda o’lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o’tar kechasi “Turkiston muxtoriyati” e’lon qilinadi. Bu mustaqillik uchun ilk qadam edi. Ammo Muxtoriyat saqlanib qolinmaydi. Sovet hukumati tomonidan xoinona bostiriladi. 1917-yil,

³² Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 497.

20-fevral kunlari shahar to'pga tutilib, 10 mingta turkistonlik o'ldiriladi. Qishloqlarga o't qo'yilib, kunpayakun qilinadi.

Behbudiy may oyining boshida Samaraqandga qaytib keladi. U yerda ham tura olmay, Toshkentga keladi. Turkistonning rus hukumati bilan sulh tuzishga intilishi, muzokara va murosaga kelishi natija bermaydi.

“Turkiston muxtoriyati”ni orzu qilgan, ammo bu niyatiga yeta olmagan Behbudiy 1919-yilning bahorida 25-martda Shahrizabzda qo'lga olinib, sirli ravishda o'ldirib yuboriladi. Umuman, Behbudiy vafoti bilan bog'liq juda ko'p taxminlar va farzlar yuradiki, buni aniq bir hujjati, dalili yo'q. Behbudiy sirli ravishda Qarshida vahshiyonona tarzda qatl etiladi.

Gap shundaki, yetib kelgan ma'lumotlarga ko'ra Behbudiy va uning sheriklari Muhammadqul O'rinboyev, Mardonquli Shomammedov, turk zobiti Naimbey, Miriy ismli kishi va bir xizmatchi bola jami olti kishi Shahrizabzda amir kishilari tomonidan qo'lga olinadi. Qarshi hokimi Tog'aybek tomonidan azoblanib, amir va ahli fatvo tomonidan o'limga hukm etilgan. Ammo ularni kim tutgani, qayerga ko'milgani haqida shu kungacha ochilmay kelayotgan sirli jumboqlardandir. Adabiyotshunos S.Ahmad Behbudiyning sirli o'limi bilan bog'liq ko'pgina faktlarni o'rganib, shunday xulosa beradi: “...rus bolshevik mustamlakachilari Behbudiy va safdoshlarining qotili, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Vaqti-soati kelib Rusiyaning fitnasi sir-asrori to'liq ochiladi”³³. Ma'lumotlarga ko'ra, mustamlakachi Rusiyaning hiylalarini anglab yetgan Behbudiy va uning safdoshlari Turkiston xalqini ozod etish uchun boshqacha bir yo'l izlab, xorijga safarga otlanadi. Ba'zilar Behbudiyning inglizlardan, ba'zilar fransiyadan yordam olmoqchi edi, ba'zi manbalar esa Haj safariga otlangan degan taxminlarni bildirishgan.

Uning vafoti haqidagi xabar roppa rossa bir yildan so'ng Samarqandga yetib keladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston Behbudiy uchun motam libosini kiyib, aza tutadi. S.Ayniy, Cho'lpon, V.Mahmud, Hoji Mullo Nodir, Faxriddin Rojiy, Hoji Mu'in, Laziz Azizzoda, Erturk va boshqalar marsiyalar, xotiralar, nekrologlar yozishadi. Xususan, bu o'rinda Cho'lponning “Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga” deb nomlangan bitta she'rini eslash kifoya:

³³ Аҳмад С. Маҳмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: Info kapital Books, 2024. – Б. 311.

*Belgisiz qabringni qaro tunlarda,
Amalimning shamin yoqib izladim.
Qizil va pok qonning islarin sochg'och,
Kuchsiz ko'yi yurushimni tizladim.*

*Amalimning yulduzikim, ko'z tikdi,
Qora, jirkanj... O'lim qoni yerlarga,
"Savol" berdim: "Yo'qotqanim qayda?" – deb,
O'zimni ham yutmoq bo'lg'on erlarga.*

*Qo'lindag'i tutam-tutam gulini,
Qabring topib, sochmoq uchun tirishdi;
Gul o'rnig'a zahar tilar muhitda
Uning qilg'on bu ishlari bo'sh ishdi...*

*Men-da otsiz, u muhitning oldida,
Qabring topib, ko'z yoshimni to'kmaq'a.
Hamda achchig' hiddatim-la u yerda...
Oq kallalik qaro devni so'kmaq'a...*

*Shuning uchun yulduz kabi yorqirab,
Elda qolg'on isming bilan turaman;
Shu ismni eslab, chizgan yo'lingdan
Yiroq ketmay, qimirlamay yuraman.*

*Aziz otam, qo'limdag'i gullarni,
Motam guli bo'lg'onini bilmaysan;
Shodlik guli ko'pdan beri so'lg'onin,
Yer ostida pok ruhing-la sezmaysan.*

*Ana... sochdim qalbidagi gullarni...
Termak uchun chaqiraman qullarni...³⁴*

Xullas, o'zining butun kuch-quvvatini xalqni uyg'otishga harakat qilgan va umrining oxirigacha, so'ngi nafasigacha Turkiston

³⁴ Чўлпон. Маҳмудхўжа Бехбудий хотираси / Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 232.

xalqining ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy hayotini yangilashga xizmat qilgan fidoyi inson va yo'lboshchi, jadid rahnamosi sifatida benihoya kattadir. Hoji Mu'in iborasi bilan aytilganda "fidokor yo'lboshchi" mustamlakachi mamlakat uchun o'ta xavfli shaxs edi. Shuning uchun ham Behbudiy va uning kabi jadid ma'rifatparvarlari qatag'on etilib, millatning sara gullari yo'q qilindi. 1923-yilda Behbudiy shahodatining 5 yilligini nishonlash munosabati bilan Toshkentdagi Taxtapul mahallasiga va Rahimiya qizlar maktabiga Behbudiy nomi berildi. 1929-yilda esa Qarshi shahriga Behbudiy nomi berildi. 1936-yildan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy nomi sovet matbuotida millatchi sifatida tilga olinadi, asarlari yig'ishtirib olinib, hayoti va ijodini o'rganish taqiqlab tashlanadi. 1989-yildan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy nomi qayta tiklanib, asarlarining qayta nashrlari amalga oshirila boshlandi.

Xulosa shuki, Turkiston muxtoriyatini, Turkiston mustaqilligini butun umr orzu qilib, shu oliy istaklari yo'lida maorif, matbuot, teatr, adabiyot sohasida ko'pdan-ko'p samarali ishlar olib borgan Millat fidoiysi Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlari 45 yoshida Rusiya mustamlakachiligi siyosati tufayli qatl etildi. U millatni jaholatdan qutqarmoq istagida ko'p zahmatlar chekdi. Shuning uchun ham u xalq orasida, ziyolilar orasida "Turkistondagi uyg'onish va yangilik rahbari" (Hoji Mu'in iborasi), "Turkiston xalqining mehribon otasi" (Hoji Mu'in), "Turon elining bilga otasi" (Faxriddin Rojiy), "Turkiston yo'lboshchisi" (Vadud Mahmud Samarqandiy) deb ulug'landi. Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining Turkiston xalqi uchun qilgan ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-ijodiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati tarix sahifalarida zarhal harflar bilan ardoqlanib bitildi. Istiqlol davri behbudiyshunosligi sohasida B.Qosimov, A.Aliyev, N.Karimov, S.Ahmad kabi ko'plab yirik olimlarning tadqiqotlarida ko'pgina maromiga yetmagan masalalar mohiyati oydinlashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмад С. Махмудхўжа Бехбудий. (ҳаёти, фаолияти, вафоти). – Тошкент: Info kapital Books, 2024. – 456 б.
2. Бехбудий Махмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. – 232 б.
3. Бехбудий Махмудхўжа. Танланган асарлар. I- жилд. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 512 б.

4. Behbudiy Mahmudxўja. Tanlangan asarlar. II- jild. – Toshkent: Akademnaşr, 2021. – 312 b.
5. Karimov N. Mahmudxўja Behbudiy. Na’eti. Faoliyati. Taqdiri. – Toshkent: Akademnaşr, 2022. – 320 b.
6. Karimov N. XX asr adabiyeti manzaralari. – Toshkent: Ўzbekiston, 2008. – 536 b.
7. Olvort Э. Биринчи ўзбек драмаси (таржимон З.Мирзаева) // Жаҳон адабиёти. 2009. №8.-Б. 107-113.
8. Мирзаева З. XX asr Ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. – Toshkent, 2011.
9. Rizaev Ш. Жадид драмаси. – Toshkent: Шарқ, 1997. – 320 b.
10. Timur Kocaoglu. Türkistan’da türkçe ilk tiatro eseri: Mahmud Hoca Behbudi’nin “Pederküş” (Baba katili) piesi (1913) // *Türklük Araştırmaları Dergisi* 2004 yıl, Sayı 15. – S. 177-262.
11. Qosimov B. Milliy uyg’oniş. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 400 b.
12. Qosimov B., Sharipov Ю., Dolimov У., Rizaev Ш., Ahmedov С. Milliy uyg’oniş davri adabiyeti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 464 b.

Rustam SHARIPOV,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi
direktori, filologiya fanlari doktori (DSc)*

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARI

Bundan yuz yil muqaddam, to‘g‘rirog‘i XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda davlat qurilishiga oid siyosiy-huquqiy masalalar bilan ham shug‘ullandilar. Buni o‘sha davrdagi tarixiy sharoit, xususan Turkiston aholisining hatto ilg‘or qismida ham huquqiy bilimning yo‘qligi yoki yetishmasligi taqozo etdi. Shu davrda maktab yoki biror uyushma (tashkilot) ochmoqchi bo‘lgan kishilar hatto buning uchun kimdan ruxsat olish va kimning

nomiga ariza yozish masalasida ham qiynalib, murakkab vaziyatga tushib qolgan edilar. Maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyat ochgan kishilar esa bu maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyatning keyingi faoliyatini tashkil etishda ojiz edilar. Vaziyatning ana shunday tus olganini ko'rgan Munavvar qori Abdurashidxonov 1914-yili "Sadoi Turkiston" gazetasining 14-iyun sonida "Jamiyatlar qanday ochilur" degan maqola bilan chiqishga majbur bo'ldi.

Munavvar qori mazkur maqolasida, masalan, maktab yo jamiyatni ochish uchun ishni nimadan boshlash, maktab yo jamiyatning nizomini qanday tuzish va kimning nomiga ariza yozish hamda bu bilangina kifoyalanmay, tegishli idoralarga bir emas, bir necha marotalab qatnash lozimligini aytgan.

Tarixiy davrning o'zgarishi bilan kishilarda ibtidoiy huquqiy bilimning yo'qligi, ayniqsa, yaqqol sezildi va shunday bilimga xalq ommasida katta ehtiyoj paydo bo'ldi. Ana shunday sharoitda jadidlar xalqqa ibtidoiy huquqiy ma'lumotlar berish bilan birga jamiyatning huquqiy normalarini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor berdilar.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining milliy manfaatlarini chor hukumati oldida himoya etish uchun kamida Rossiya Davlat Dumasining yoki Toshkent shahri aholisining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish yoki ko'tarish uchun esa kamida Toshkent shahar Dumasining a'zosi bo'lish lozim edi. Chor hokimiyati yillarida markaziy va mahalliy Davlat Dumalariga a'zo bo'lgan yerli xalq vakillarining hammasini ham o'zlarining el-yurt oldidagi burchlarini bajargan, deb bo'lmaydi. Lekin ular orasida Mahmudxo'ja Behbudiy singari xalq va mamlakat dardi bilan yashagan siymolar bor ediki, ular Davlat Dumasining a'zosi sifatida samarali faoliyat olib bordilar.

2001-yili Haarlem (Gollandiya)da nashr etilgan "Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar. 1900-1924" degan to'plamdan ma'lum bo'lishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1907-yilda Rossiya 3-Davlat Dumasi yig'ilishida ko'rib chiqish uchun "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"ni tayyorlagan va bu "Loyiha"ni Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga topshirgan ekan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining sobiq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Usmon Xo'jaev (Usmon Xo'ja, 1878-1968) xotirasiga bag'ishlangan ushbu to'plam uning farzandi doktor Temur Xo'jao'g'li tomonidan nashrga tayyorlangan (Reforem Movements and Revolutions in Turkistan. 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja. - Haarlem, Netherlands, 2001).

Mazkur "Loyiha" Mahmudxo'ja Behbudiyning Rossiya Davlat Dumasiga taklifi sifatida yozilgani uchun Dumaning Musulmon fraksiyasi uni shu sohaga yaqin kishilarga fikr olish uchun bergan va u shunday yo'l bilan Turkiston masalalari bo'yicha taniqli mutaxassis Ismoilbek Gasparalining qo'liga tushgan. I.Gasparalining qizi Shafiqaxonim otasining arxivini Turkiyaga olib borib, Anqaradagi doktor Najip Hablemito'g'liga topshirgan. Doktor Najipbek XXI asr arafasida I.Gasparali arxividan Behbudiyning "Loyiha"sini topib, uni Temur Xo'jao'g'liga bergan. Shu tarzda "Loyiha" Temurxo'janing tashabbusi va mehnati bilan dastlab Gollandiyada chop etilgan to'plamda, keyin prof. Begali Qosimov vositasida O'zbekistonda "Jahon adabiyoti" jurnalining 2003-yil 8-sonida e'lon qilingan.

"Loyiha"ga yozilgan kirish so'zidan ma'lum bo'lishicha, Behbudi 2-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ham bir necha ma'ruzalar yozib bergan va ularda Turkiston muxtoriyati bilan bog'liq muhim masalalarni ko'targan. Bizningcha, zikr etilayotgan "Loyiha"da Behbudiyning o'sha ma'ruzalarda ilgari surgan ayrim fikr va mulohazalari ham muayyan huquqiy normalar sifatida o'zining yangicha talqinini topgan bo'lishi mumkin.

Loyiha to'qqiz bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Duma xususida.
2. Rusiya musulmonlari raisi.
3. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi asosining musavaddasi (qoralamasi) Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi xususida.
4. Idorai ruhoniya va doxiliya asoslarining xatti-harakati.
5. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufidagi ishlar.
6. Idorai ruhoniya va doxiliya mas'uliyati.
7. Turkiston qozilari xususida.
8. Joniy va badkorlar (jinoyatchi va bezorilar).
9. Turkiston yahudiylari va ajnabiylari.

"Loyiha"ning bu qismlari va ulardagi ayrim moddalarini sharhlashdan avval shuni aytish joizki, Behbudi 18 yoshidan boshlab qozixonada mirzalik qilgan. U shu lavozimda ishlash jarayonida o'zining katta iste'dodini, ruhoniya va doxiliya sohasidagi boy bilimini namoyish etib, qozi va mufti darajasiga erishgan. Ammo, 1899-1900-yillarda haj safari munosabati bilan Arabiston, Misr va Turkiyada bo'lishi hamda bu mamlakatlardagi maktab va madrasa ta'limi bilan tanishish uning hayotini mutlaqo o'zgartirib yubordi. 1903-yildan boshlab Behbudiyning diqqat markazida faqat bir masala

– yangi tipdagi maktab masalasi turdi va shu maktab yordamida Turkiston aholisini chirmab tashlagan bid'at va jaholatga qarshi kurashish va xalq ommasi o'rtasida ma'rifat ziyolarini tarqatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Turkistonning ilg'or kishilari safidan o'rin egallagan Behbudiy 1906-yili Nijniy Novgorodga borib, Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyda ishtirok etdi. Uning mazkur qurultoyda Turkiston musulmonlari guruhiga rahbarlik qilishi va katta nutq so'zlashi yig'ilganlarda yaxshi taassurot qoldiradi. U Rossiya Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasi a'zolari o'rtasida obro'-e'tibor qozonib, Turkiston muammolarini ular yordamida Davlat Dumasiga havola etmoqchi bo'ladi.

Behbudiyning 3-Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasiga yo'llagan "Loyiha"sining Turkiston madaniy muxtoriyatiga bag'ishlangani bejiz emas. Prof. Begali Qosimov "Jahon adabiyoti" jurnalining zikr etilgan sonida bosilgan kirish so'zida yozishicha,³⁵ 1- va 2-Davlat Dumalarida qizg'in muhokama etilgan masalalardan biri ham muxtoriyat masalasi edi. Ammo *muxtoriyat* tushunchasi o'sha vaqtda hali siyosiy-ijtimoiy va madaniy mustaqillik ma'nosini anglatmagan. Binobarin, Rossiya musulmonlari *madaniy muxtoriyat* tushunchasi ostida millat milliy-madaniy turmushining daxlsizligini nazarda tutganlar. Bu o'sha davr uchun, shubhasiz, jasoratli harakat hisoblangan.

Endi bevosita "Loyiha"ning birinchi bo'limiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda asosan Turkiston aholisidan Davlat Dumasiga vakil saylanishining huquqiy normalari haqida bahs boradi. Behbudiy bu masalada Turkistondagi musulmon aholisining sonidan kelib chiqqan holda vakil saylanishini lozim, deb biladi. Bu moddaga eslatma sifatida aytish lozimki, o'sha vaqtda Turkistonda o'rnatilgan rus aholisining soni (322 ming), mahalliy xalq nufuzi (5 million 378 ming) dan qariyb yigirma marta kam bo'lgan.

"Loyiha"dagi "Rusiya musulmonlari raisi" deb nomlangan ikkinchi bo'limning ma'no-mohiyati quyidagi masalaga qaratilgan. Behbudiyning fikricha, Umumrossiya musulmonlarining diniy va hayotiy ishlarini bajarish hamda barcha ruhoniya va doxiliya idoralariga rahbarlik qilish uchun Peterburgda, ya'ni Rossiyaning

³⁵ Жаҳон адабиёти. - 2003. - 3-сон.

poytaxtida mahkamai islomiya tashkil etilishi, ham diniy bilim, ham zamonaviy voqealardan yaxshi xabardor musulmonlardan birining bu mahkamaga ma'lum bir muddatga rais etib saylanishi lozim.

Turkiston idorai ruhoniya va doxiliyasi masalalariga bag'ishlangan uchinchi bo'lim "Loyiha"ning eng katta bo'limi bo'lib, o'n moddadan iborat. Bu moddalarning asosiy mazmuni quyidagi masalalarni o'z qamroviga olgan:

1. Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiysk viloyatlaridan iborat Turkiston uchun bir idorai ruhoniya va doxiliya (Diniy va ichki ishlar idorasi)ni tashkil etish va bu idorani Toshkent shahrida barpo etib, unga "birinchi darajali ulamo sinfidan shariat va zamondan xabardor kishi"ni saylov yo'li bilan besh yillik muddatga shayxul-islom etib tayinlash.

2. Mazkur idorani quyidagi tartibda tashkil etish: 1 rais – shayxul islom, 5 diniy alloma – a'lam, 5 oliy va o'rta ma'lumotli musulmon – chilon (a'zo), shuningdek, mirzo va sarkotib.

3. A'lam va chilon (a'zo)larni har bir viloyatdan besh yillik muddatga saylov yo'li bilan tayinlash.

4. Idorai ruhoniya va doxiliya tarkibiga, yuqorida qayd etilgan a'lam va chilon (a'zo)lardan tashqari, barcha mahalliy yahudiylardan bir nafar yahudiy olimni saylov yo'li bilan jalb etish.

5. Turkistonning har bir viloyatida Idorai ruhoniya va doxiliya sho'balarini ochish va bu sho'balarga viloyat shaharlarining musulmonlar yashaydigan qismidan joy berish.

6. Idorai ruhoniya va doxiliya sho'basining tarkibini quyidagicha belgilash: 1 raislik qiluvchi – oxund, 3 diniy ulamo – viloyat a'lami, 1 oliy ma'lumotli musulmon – viloyat chiloni (a'zosi) va, agar lozim topilsa, mirzo (sarkotib).

7. Har bir viloyatda Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi, uning sho'balari va dorulqazo(qozixona) hukm va talablarini ijro etadigan ijroiya mahkamasini tuzish.

8. Mahkamaga ma'lumotli musulmonlardan saylov yo'li bilan rais etib tayinlash.

9. Turkistondagi musulmon volost yo'llar boshqaruvchilari, starshina va starshiy (katta) oqsoqollarini ijroiya mahkamaning amirligiga tobe deb hisoblash.

10. Bu idoralarning barchasi sho'bai ruhoniya va sho'bai hayotiyaga bo'linadilar. Behbudiy Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyaning rahbariyati va tarkibiy qismlariga keng to'xtabgina

qolmay, uning faoliyat doirasini ham belgilab bergan. Umuman, "Loyiha"ning sharhlanayotgan bu birinchi qismida Idorai ruhoniya va doxiliya masalalari muallifning diqqat markazida turadi. Buning sababi shundaki, XX asr boshlarida Turkiston aholisi o'rtasida Islom dini katta mavqega ega bo'lib, uning ma'naviy va madaniy hayotiga, Behbudiy o'ylaganidek, yangi diniy tuzilma – Idorai ruhoniya va doxiliya orqali ta'sir ko'rsatish va aholining turmush tarzini shu tuzilma yordamida o'zgartirib borish mumkin edi. Shuning uchun ham mazkur "Loyiha"da Idorai ruhoniya va doxiliyaning faoliyat va mas'uliyat doirasi quyidagicha belgilangan:

4-bo'lim. Idorai ruhoniya va doxiliya a'zolarining xatti-harakati.

1. Shayxul-islom va oxund – ruhoniylar va shar'iy ishlar, a'lamlar – qonun-qoidalar va zamonning zarur ishlari, a'zolar esa turli-tuman ishlar bilan shug'ullanadilar. Muhim ishlarga viloyat a'lamlari va a'zolari ham chaqirilib, majlis o'tkaziladi. Hatto lozim bo'lganda Rossiyadagi Idorai ruhoniya va muxtoriyat doiralaridan maslahat olinadi.

2. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi sho'balari Rossiya Musulmonlari ittifoqi qarorlariga rioya qiladi.

3. Majlis va idoralarning har bir ishi, hukm va qarori shariat qonun va qoidalari doirasida bo'ladi.

4. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi tasarrufidagi shia mazhabiga mansub musulmonlarning rusumi mazhabiyaga oid fatvolari Zakavkaziyadagi shia shayxul-islomi majlisining roziligi bilan kuchga kiradi.

5. Mahalliy aholi jamiyatlari bu idoralarning ruhoniylar va hayotiy sho'balari to'g'risida ma'lumot olish, taftish qilish va hisob so'rashga haqlidir.

5-bo'lim. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufidagi ishlar.

Bu bo'limda Idoraning faoliyat doirasi o'n ikki moddada belgilangan va ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Idora o'z sho'balariga rahbarlik qilish bilan birga ular o'rtasida aloqa o'rnatadi va barcha mahalliy idoralarning ishlarini tartibga soladi.

2. Mahalliy rus mahkamalariga savol bilan murojaat etadi, bu ma'lumotlarning xatti-harakatlariga norozilik bildiradi va tegishli xalq huquqini mahalliy hukumat oldida himoya qiladi.

3. Meros-tug'ilish, bola boqib olish va tarbiyalash, nikoh-taloq, bola saqlab olish, xullas, ro'zg'or va oila ishlari, turli xil ko'chma va ko'chmas mulk hamda nomus da'volari bilan shug'ullanadi.

4. Masjid, madrasa, maktab, vaqf va xayr-sahovat, vasiyat ishlari bilan shug'ullanuvchi mutavalli va nozirlar hamda diniy va dunyoviy tahsil dasturlari, shuningdek, maktab va madrasalar tuzilmasini tashkil etadi.

5. Turkiston qozilariga shar'iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so'ramoqlari uchun hamda jazo uchun dasturulamal va qonunnomalar tasnif etadi.

6. Barcha ruhoniylar va milliy, doxiliy maktab xizmatlariga kiradigan shaxslarni imtihon qilib, ular saviasining yetukligi va haqligi haqida shahodatnoma beradi.

7. Yer va suv masalasini Turkistonning doxiliy maishat va ahvoli havoia jug'rofiyasiga muvofiq suratda xolisona va qonun asosida hal etadi va h.k.

Ko'ramizki, Behbudiy talqinidagi Idorai ruhoniya va doxiliya Turkiston aholisi hayotining qariyb barcha muammolari bilan shug'ullanish va bu muammolarni shariat amallari asosida hal etish huquqiga ega. U hatto aholidan tushgan shikoyat va arizalar asosida mahalliy rus mahkamalariga murojaat etishi, ular xatti-harakatiga nisbatan norozilik bildirishi ham mumkinki, bu "Loyiha"ning qimmatini yanada oshirgan.

Nihoyat, Idorai ruhoniya va doxiliyaning javobgarligiga bag'ishlangan so'nggi 6-bo'lim quyidagi masalalarni o'z ichiga olgan:

1. Idorai ruhoniya va doxiliya sho'balari, ijroiya mahkamasining, a'lam va a'zolari hamda qozixona xodimlarining xiyonat va jinoyatlari Idorai ruhoniya va doxiliya mahkamasi tomonidan tekshiriladi.

2. Turkiston Idorai ruxoniya va doxiliyaning raisi, a'lam va a'zolarining jinoyatlari taftish komissiyasi tomonidan o'rganiladi. Rossiyadagi barcha Idorai ruhoniya va muxtoriyatlarni tekshirish Umumrossiya musulmonlari raisi mahkamasining vazifasiga kiradi.

Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasining tuzilmasi, a'zolarining xatti-harakati, tasarrufidagi ishlar va mas'uliyati Behbudiy tomonidan shunday mukammallik bilan ishlab chiqilganki, uning ham shariat qonun-qoidalari, ham zamonaviy huquqiy bilimlarni puxta egallaganligi yaqqol ko'rinib turadi.

7-bo'lim. Turkiston qozilari xususida.

Behbudiy qozixonada ishlagani va bu sohani mukammal bilgani uchun Turkiston qozilarining huquqiy maqomi va qozilik tizimining huquqiy masalalarini o'n moddada ifodalagan va bu mlddalarining asosiylari quyidagilardir:

1. Turkiston qozilari hozirgi tartibda saylanishi, ammo ularning bu lavozimga loyqliklari Idorai ruhoniya va doxiliya yoki sho'basining shahodatnomasi bilan tasdiqlanishi lozim. Ularni bo'shatish masalasi ham mazkur Idora ixtiyoridadir.

2. Turkiston muzofotidagi hukm chiqaradigan boshqa mansablar tugatilib, ular o'rniga shar'iy qozilar mansabi joriy etilsin.

3. Har bir volostda bir qozixona, har bir qozixonada esa bir qozi va bir muovinnin mansabi belgilansin.

4. Qozi va muovinning vazifalari hozirgidek xalq tarafidan belgilanib, maoshi Idorai ruhoniya tomonidan berilsin.

5. Bir qozining hukmidan norozi bo'lgan kishi hozirgidek 4 qozidan iborat kengashga murojaat etsin.

6. Qozilar kengashining hukmi appelyatsiya uchun Idorai ruhoniya-gacha ko'tarilib, bekor qilinishi yoki rad etilishi mumkin.

7. Qozixonada yoziladigan barcha hujjatlar turkcha (o'zbekcha) yozilib, da'vo va hujjat summasi cheklanmasligi lozim.

8. Turkiston qozilari tomonidan tasdiqlangan barcha vasiqalar, hukm va xatlar Rossiyadagi adliya mahkamalari tomonidan e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq va h.k.

"Loyiha"ning "Joniy va badkorlar" ("Jinoyatchi va bezorilar") degan sakkizinchi hamda "Turkiston yahudiylari va ajnabiylari" degan to'qqizinchi bo'limlari ham mazkur masalalarga oid ishlarni adolatli hal qilishga qaratilgan moddalardan tashkil topgan. Masalan, agar turkistonliklar 3 marta o'g'irlik qilgan yoki umumga zarar keltirgan bo'lsalar, ular Idorai ruhoniyaning xohishi bilan boshqa mahallaga vaqtincha yoki umrbod chiqarilib yuborilishi mumkin va h.k.

Behbudiy Idorai ruhoniya va doxiliya faoliyati bilan bog'liq bu huquqiy qarashlari va takliflarini bayon etgach, hukumat idoralarining faoliyati bilan bog'liq "talab va modda"lardan iborat "Loyiha"ning ikkinchi qismini ham Musulmon fraksiyasiga ma'ruza tarzida taqdim etgan. Bu qism quyidagi to'rt bo'limdan tashkil topgan:

1. Milliy mahkamalar xususida.
2. Vaqflar xususida.
3. Umumiy maktablar.

4. Suv va yerlar xususida.

"Mulkiy mahkamalar xususida" deb nomlangan birinchi bo'limdagi Behbudiyning huquqiy qarashlari mazkur mahkama ishini tubdan qayta qurishga qaratilgani bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

"Loyiha"dagi vaqf masalasiga bag'ishlangan ikkinchi bo'limning maqsad va mohiyati vaqf ishlarini butkul Idorai ruhoniya ixtiyoriga o'tkazishga qaratilgan. Behbudi, "Loyiha"ning boshqa bo'limlaridan ham ma'lum bo'lganidek, o'lkadagi asosiy ishlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun Idorai ruhoniya va doxiliyani tuzish hamda hukumat mahkamalari tasarrufidagi bir qator vazifalarni shu Idora ixtiyoriga o'tkazish yo'li bilan Turkistonning "madaniy muxtoriyati"ga erishmoqchi bo'lgan.

Yuqoridagi moddalardan shu narsa ayon bo'ladiki, Behbudi bir tomondan, Turkiston Rossiyaning tarkibiy qismiga kirgani holda bu yerda yashovchi musulmonlarning Rossiyadagi ijtimoiy imtiyozlardan foydalana olmayotganlarini ko'zda tutib, mahalliy xalqning Rossiyadagi rus fuqarolari bilan teng huquqli bo'lishi, ikkinchi tomondan, Turkistondagi rus ma'muriyatining rahbarlik huquqlarini chegaralash. Turkistonning "madaniy muxtoriyat"iga erishish yo'llarini axtargan. Behbudiyning bunday intilishlari "Loyiha"ning suv va yer haqidagi bo'limida ham o'z ifodasini topgan.

Behbudi 1907-yil noyabr oyida yozilgan bu hujjati bilan Rossiya mustamlakachilik siyosatining Turkistondagi kishanlarini bo'shash-tirmoqchi bo'lganki, biz bu hujjatda oradan o'n yil o'tgach, 1917-yilda amalga oshgan Turkiston Muxtoriyati g'oyalarining dastlabki sadolarini ko'ramiz. Behbudiyning bu "Loyiha"si bilan Turkistondagi mustamlaka davlat tuzumini isloh etmoqchi bo'lgani shubhasiz. O'lkadagi bir qator hayotiy masalalarning davlat tasarrufida Idorai ruhoniya va doxiliya ixtiyoriga o'tkazilishi, shuningdek, maktab, suv va yer masalalari yuzasidan olg'a surilgan takliflar Behbudiyning o'z davridan kamida o'n yilga ilg'orlab ketganini ko'rsatadi.

Rustam SHARIPOV,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi
direktori, filologiya fanlari doktori (DSc)*

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SIYOSIY PUBLITSISTIKASI

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ko‘plab publitsistik maqolalari hali qayta nashr etilganicha, to‘g‘rirog‘i, to‘planib, o‘rganila boshlaganicha yo‘q. Ammo, hozirning o‘zida kitobxonlar e‘tiboriga havola etilgan maqolalarning o‘ziyoq uning faol siyosatchi va o‘tkir siyosiy sharhlovchi bo‘lganidan darak beradi. Chunonchi, atoqli jadid o‘zining "Xayrul umuru Avsatuhu" nomli maqolasida (1906) XX asr boshlarida Turkistonda harakatda bo‘lgan to‘rtta partiya to‘g‘risida bu haqda xabari bo‘lmagan, hatto bilishni ham istamagan ommaga ma‘lumot berib, bu partiyalarning ijtimoiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini mufassal sharhlaydi va siyosiy ongi shakllanmagan 6 millionlik Turkiston musulmonlarini bu partiyalardan biri atrofida jipslashib, o‘z haq-huquqlari uchun kurashishga da‘vat etadi. Ayni paytda u o‘ziga yaqin bo‘lgan Rusiya musulmonlari ittifoqi partiyasining 1905-yili Nijniy Novgorodda, 1906-yil boshlarida Peterburgda, shu yilning avgust oyida esa yana Nijniyda o‘z majlislariga yig‘ilib, siyosiy dasturlarini aniqlab olganliklarini aytadi. Ammo, bu partiya o‘z maqsadiga erishishi uchun o‘zlariga siyosiy dasturi bilan yaqin bo‘lgan kadetlarga qo‘shilib, faoliyat olib borajaklari haqida xabar beradi.

Behbudiyning bu maqolasi xalq ommasi siyosiy savodini chiqarish maqsadida yozilgandek taassurot tug‘diradi. Ehtimol Behbudiydek yetakchi siyosiy arbobning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri xalqni siyosiy jihatdan savodli qilish va sekin-asta uni siyosiy kurash maydoniga olib chiqish bo‘lgandir.

Behbudiyning siyosiy publitsist sifatidagi faoliyati, ayniqsa, 1913-1915-yillarda "Oyna" jurnali va "Samarqand" gazetasini nashr etgan vaqtda kuchaydi. Bu vaqtda u nafaqat Turkiston xalqlari hayotini, balki xorijiy Sharq mamlakatlaridagi ahvolni ham yaxshi bilgan va har ikki hayotni o‘zaro qiyoslagan holda gazeta va jurnalning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab olgan va aniq maqsad bilan harakat yurgizayotgan edi. Behbudiyning muharriri bo‘lgan bu

nashrlarning g'oyaviy yo'nalishi esa birinchi navbatda xalq ommasining og'ir iqtisodiy va madaniy sharoitda yashashiga sabab bo'lgan ba'zi bir urf-odatlaridir. Otashin publitsist o'z maqolalarida ana shunday qusurli va zararli odatlardan biri bo'lgan to'y masalasini ko'taradi. Qizig'i shundaki, bu masala bugungi voqeligimiz uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Bundan birmuncha vaqt avval O'zbekiston televideniesi "To'ylarimiz - o'ylarimiz" degan rukn ostida bir necha yil davomida turkum ko'rsatuvlarni berib bordi va xalqni to'y masalasiga aql va zakovat bilan qarashga da'vat etdi. Behbudiy va boshqa jadidlarimiz esa hamisha dolzarb bo'lib kelayotgan bu mavzuni 1913-yildayoq ko'targan edilar.

O'zbek xalqi orasida 1917-yilga qadar kechgan davrda kosiblik eng ko'p tarqalgan va shu bilan bir qatorda ko'p mehnat talab etadigan kasb edi. Shuning uchun ham Behbudiy "A'molimiz yoinki murodimiz" degan maqolasida shu kasb egalarini nazarda tutib yozadi: "Bechora kosibni a'moli to'ydur. O'zi rohat yuzi ko'rmaydir. Kecha-kunduzni 18, balki 20 soatni mehnatda o'tkaraturgon kosiblarimiz bordur... O'n va yigirma sanalar mehnat va mashaqqat etar va xudodan o'g'il tilar, to'y qilmoq uchun. Ana bechorani a'moli. Yigirma sanalik mehnati uch kunda tamom".

Behbudiy uch kunlik to'y ba'zi oilalarni o'n yil, hatto bir umrlik tashvishlarga giriftor etishi, hatto xonavayron qilib, bevatan aylashi mumkinligini ta'kidlaydi. Bir to'y kosib uchun ming, o'rtahol kishi uchun 2000 yo 3000, "nimboy" uchun esa 5000 so'mga tushadi. Va bu so'mlar uch kunlik to'yda yeb-ichilib ketadi. Kosib ham, o'rtahol ham, hatto "nimboy" ham bu mablag'ni bonka, firma yo "foydaxo'r"dan oladi. Shuning uchun ham ular qarzni to'lash paytida "bog'u xona va uyi ichidagi asbob"ni sotishga, hatto "bechora kelin va kuyov"ning ko'rpa va libosini "qarzgoh"ga berishga majbur bo'lishadi. "Nimboylar sinar, - deb yozadi Behbudiy, - tirikliginda bo'lmasa, o'lganda sinar. Ahlu ayoli darbadar bo'lur. Oy, bu nima? To'g'risi, bir nav devonalik emasmi? Subhonolloh, qarz olib, xalqqa osh bermoq aqlsizlik emasmi? Hamda illati bedavosidur" (158-bet).

Xalq faqat to'y munosabati bilan emas, balki boshiga musibat tashvishi tushganida ham shunga yaqin oqibatlarni boshidan kechirishi mumkin. Shuning uchun ham Behbudiy chinakam gumanist inson va ma'rifatparvar sifatida xalqni ichdan kemirayotgan urf-odatlarning past-baland tomonlarini ochib tashlaydi. Behbudiy ko'targan masala xususiy ahamiyatga emas, balki umumo'zbekiy ahamiyatga molikdir.

Negaki, katta xalqning to'y bo'lmagan, o'limi bo'lmagan kuni yo'q. "Har kun, - deb yozadi publitsist, - bir musulmonni nimarsalari bozorg'a dini uchun... sotilur. Har kun na qadar veksellar – "protest", na qadar do'kon, korxona hajz (pechat) bo'lur. Bu nimaning jazosi? To'y, ma'raka, ta'ziya, ko'pkari, bazm" (o'sha bet). Holbuki, bir mahallada 20 nafar kishidan biri yo savodli, yo savodsiz. Hattoki, bugun qozilik qilayotgan kishi o'rniga ertaga shunday bir savodli-ilmli kishi topilmasligi mumkin. Behbudiy ana shunday xalq turmushi manzarasini chizib, xitob qiladi:

"Hoy, hoy, xaloyiq! Bizlar devonami, sog'? Albatta...Biz to'y va ma'raka xayolidan lazzat olarduk. To'yu ma'rakamiz ila faxr qilar eduk. To'yu ma'rakaga sarf qilinaturg'on oqchani jamlamoq va yo qo'lg'a kirguzmoq uchun harakat etarduk. Agarda to'y va ma'rakag'a qadimgidek oqcha to'kmasak, ul oqchani na qilmoq kerak? Munga javob berilurki, to'y va ma'raka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortiqcha pul ila bolalarni musulmon va rusi yaxshi o'qito'lsun. To'yu ma'rakag'a sarf qilinaturg'on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast-rextlarig'a sarf etilsun. To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablariga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg'a va Rusiya dorilfunun va dorilsanoatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to'yu ma'rakag'a sarf qilinaturg'on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O'runburg' va Qozong'a usuli ta'lim o'rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur..." (159-bet).

Ko'ramizki, zikr etilgan maqolada Behbudiy ikki muhim masalani ko'targan. Bu masalalarning har ikkisi ham xalq taqdirida o'z aksini ko'rsata oladigan masalalardir. Behbudiy bu masalalardan birini ko'tarib, xalqning to'y va ma'rakalar tufayli yana ham qashshoqlanishi mumkinligi haqida bong urib, uni ortiqcha sarf-xarajat qilmaslikka chaqirganida, xonavayron bo'lishi haqida ogohlantirganida otashin gumanist sifatida maydonga chiqadi va o'z qarashlarining gumanistik mohiyatini namoyon etadi. Ammo, u bu bilangina kifoyalanmaydi. To'y va ma'rakalar uchun sarf qilinajak xarajatni o'z farzandlarining o'qishiga, madrasa va maktablarni ta'mir qilishga, talabalarni xorijiy shahar va o'lkalarga yuborish uchun sarflashga chaqiradi. Bir tomondan, u kambag'al xalqni xonavayron bo'lish xavfidan xalos etmoqchi bo'ladi, ammo, ikkinchi tomondan,

unga yana sarf-xarajat eshigini qaerga qarab ochish haqida maslahat bermoqda. Bu, uning qarashlaridagi ziddiyatdan dalolat bermasmikin?!

Behbudiy garchand har ikki xarajatning moddiy jihatdan farqini ko'rsatib o'tmagan bo'lsa-da, keyingi xarajat avvalgisiga nisbatan anchagina oz. Lekin, eng muhimi, bu yeb-ichilib ketadigan xarajat emas, balki qaytib keladigan, farzandlari taqdirini boshqa nurli manzillar tomon yo'naltiradigan va, shubhasiz, ota-onalarning o'zlari ham mevasidan bahramand bo'ladigan harajatdir. Demak, Behbudiy bu ikkinchi masalani ko'tarib, yuzidagi ma'rifatparvarlik "niqobi"ni ko'rsatganida ham gumanist bo'lib qoladi va ayni paytda ma'rifatparvarlik jabhasidan chetga chiqmaydi. Aksincha, agarda birinchi taklifi asosan har bir xonadonni xonavayron bo'lishdan saqlab qolishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi taklifi, bir tomondan, shu xonadonni, ikkinchi tomondan, butun xalqni ma'rifatli etishni ko'zda tutadi. Muhimi shundaki, Behbudiy o'zining ana shu ruhda taklif va istaklarini bayon etish asnosida o'z ma'rifatparvarlik dasturini bizga izchil bir tizim tarzida taqdim etadi.

Behbudiyning ma'rifatparvarlik dasturi quyidagi masalalardan iborat:

1. Bolalarni musulmon, usuli jadid, rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarda o'qitish.

2. Eski madrasa, mozoru masjid va maktablarning "shikast rext"larini ta'mirlash.

3. Bolalarni Sharq mamlakatlari va Ichki Rusiyadagi dorilfunun va dorilsanoatlarga o'qishga yuborish.

4. Bolalarni Rusiya hukumati maktablarida o'qitish; buning uchun har bir bolani ikki yil davomida ruschaga o'qitish va tarbiya qilish; bu ikki yil uchun to'lanajak 600 so'm miqdoridagi pulni to'y-ma'rakalar uchun jamlangan mablag'dan olish.

5. Bolalarni tarbiya qiladigan pansionlar ochish; bu tarbiyaxonalarning zamonaviy, milliy va diniy ruhda bo'lishiga erishish.

6. Bu tarbiyaxonalarni ochish va bolalarni hukumat maktablariga tayyorlash uchun "Nashri maorif", yoxud "Jamiyati xayriya", yo "Jamiyati atfol" singari jamiyatlarni ochish.

7. Bu jamiyatlar yordamida va tegishli yuqori malakali o'quv yurtlarida o'qitish orqali huquqshunos, injener, muhandis singari mutaxassislar bilan birga "zamona maktabdori", millat xomiysi va

xodimi, "Davlat Dumasig'a" deputat, milliy sanoatimizni isloh eta biluvchi, texnik, tijorat va bankalarda ishlay oladigan, shahar dumalarida va umuman Turkistonda ochilajak idoralarda ishlaydigan mutaxassislarni yetishtirishdir.

"Hozirgi mo'ysafidlarimiz tursun, o'rta yoshlar yaqinda o'lib ketar, zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlik va fununi zamoniyani darbar qilgan odamlarni talab qilur. Bu kundan boshlab har shahardan har sana o'n-yigirmalab hukumat maktablarinda bola berilsa, o'n besh sana so'ngra har shaharda 4-5 zamona odami paydo bo'lur va hukumat mansablarig'a, zamona doiralariga, tijorat va sanoatlarinda kirib, bizlarg'a manfaat yetkurur. Kellar zamon boshqadir" (160-bet).

Behbudiyning bu ma'rifatparvarlik dasturi xalqni bir pog'ona yuqoriga ko'tarish, uni milliy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, o'zini-o'zi eplash va boshqarish mumkin bo'lgan bosqichga ko'tarishni ko'zda tutadi. Shubhasiz, bu dastur faqat ma'rifiy yuksalishni emas, ma'rifiy kamolot orqali hur va erkin zamonlarga erishishni ko'zda tutadi va uning yo'nalishi ham uzoqqa – hurriyat manzillariga qaratilgan.

Behbudiyning e'tirof etishiga ko'ra, o'sha paytda ikki o'zbek o'zaro urishib yo tortishib qolsa, yahudiy yoxud ajnabiy zakunchining oldiga borgan, boshi og'rib qolsa, ajnabiy doktorga yo'liqqan. Shuning uchun ham to'y, ma'raka va ko'pkari o'rniga shu "a'mol-ideal-murod-tilak-muddao" yo'lida harakat qilish tarix taqozosidir.

Xo'sh, o'z xalqi va vatanining kelajagi haqida jonkuyarlik qilgan Behbudiyning Turkistondagi siyosiy ahvolga, xalqning huquqiy madaniyatini oshirish masalasiga qanday munosabatda bo'lgan? Davlat va jamiyat qurilishi masalalari ham uning adabiy-ilmiy merosida biror mavqe kasb etganmi?

Shubhasiz, Behbudiyning o'z xalqining kelajagini faqat ma'rifat masalalari bilangina bog'lab qo'ymagan. Har taraflama ma'lumotli bo'lgan alloma o'z xalqining kelajagi qanday kechishi lozimligi masalasi bilan ham qiziqib, boshqa davlatlarning siyosiy tuzumini o'rgangan va qaysi davlat tuzumidan andoza olish mumkinligi borasida bosh qotirgan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Behbudiyning 1906 yil nashr etilgan "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Umumiy jug'rofiyadan saylanma kitob") degan asari ayniqsa muhimdir. Behbudiyning ushbu asarning muqaddima fasllaridan biri "jug'rofiya"

fanining ahamiyati va bu fanning "tarixiy jug'rofiya", "siyosiy jug'rofiya" va "umroniy (umumiy) jug'rofiya" degan qismlardan tashkil topishi haqidagi fikrlarini bayon qilgach, yozadi: "Xulosa, bu zamong'a jug'rofiya ilmi dunyoni va andagi xaloyiq, hayvonot, umronot va harnaki dunyog'a bordur,, bildiraturg'on kerakli, bir ilmiy jahonnomadur..." Behbudiy shu so'zlardan keyin kishilik jamiyati tarixi va uning muhim nuqtalariga to'xtalib o'tadi. Asarning "Hukumat va hukmronlar" deb nomlangan fasliga kelib, bevosita davlat qurilishi masalalariga oid fikrlarini o'rta tashlaydi.

Sharqda Fransiyani "Farangiston", fransuzlarni esa "farang", "farangi" deb atab kelishgan. Ammob ayni paytda "farang" so'zi umumlashtirilib, umuman yevropaliklarga nisbatan ham qo'llangan. Shu ma'noda Behbudiyning quyidagi so'zlarida ham bahs fransuzlar haqida emas, balki XX asr boshlaridagi yevropaliklar va ularning davlat tizimlari haqida boradi:

"Hozirg'a faranglar o'rtasig'a mo'tabar uch qism hukumat yo hukmronlik bordur. Birinchi – idorai mustaqilla (idorai mutlaqa)ki, oni ustidan qaraguvchi podshoh sohib ixtiyor va har bir royi va amri zako'n va nizom bo'ladur. Amri, hukmi, royi nofizdur. Qo'l ostidagi barcha majlislar, maslahatxonalarni ittifoqi, xohishi, hukmi o'shal imperato'rni mustahkam qilishi imzosig'a mavkufdur. Shunday imperato'rlarni yangidan mansub bo'lishi har davlat va hukumatga muqarrariy qonun va odatlar bo'yuncha meros yoinki valiahdlik qoidalari va o'shal hukumatni qo'ygan tartib va tadbirig'a muvofiq bo'ladur" (234-bet).

Demak, XX asr boshlaridagi Yevropa davlatlarida harakatda bo'lgan uch siyosiy tuzumdan biri monarxiya bo'lib, unda saltanat egasi bo'lgan kishining xususiy qarashlari ustivor ahamiyatga egadir.

"Ikkinchi qism, - deb yozadi Behbudiy, - idorai mashruta hukmronligidurki, bu hukumatg'a tobe odamlar aksari ahli ilm va xabardurlar. El va urug'lari ilm, hunar va dunyo ishlarig'a taraqqiy qilgandurki, shul tariqa fuqarolar o'z arolaridan insoflik, ilm va dunyodan xabarlik odamlarni o'zlarig'a katta va boshqarguvchi vakil saylaydurlar. Shu tariqa saylangan vakillarni podshoh jamlab, muqarrariy mahkamalarg'a, mamlakatdorlik ishlarig'a aralashib, mashvarat ila tuzatilmoq va muhofazat qilmoqg'a ko'z bo'lmoqlari uchun qaror beradurki, alarni majlis va mahkamalarini "millat majlisi", "maslahatxona", "parlamentu", "go'sudarski dum", "majlisi sinodiy", "el majlisi" degan ismlar ila yod qilinadur. Yana ba'zi

maslahatxonalar borki, maslahatboshilarni, hukmdorlarni o'zi tayin qiladur. Ushbu "millat majlisi"ni chilonlari mashvarat ila mamlakat ishlarig'a aralashib, nizom va qonun tuzatib, hukmdor va podshohlarni qilaturgon ishlarig'a aralashadur. Podshoh bu majlis amrig'a tobe'dur" (243-244 – betlar).

Behbudiy tavsifidagi ikkinchi davlat tuzumi, bugungi atama bilan aytganda, parlamentar respublikadir. Davlat qurilishining bu turida podshoh yo saltanat rahbarining mavjud bo'lishiga qaramay, parlament yo "millat majlisi" uning ra'yiga emas, aksincha, u shu tashkilot a'zolarining ra'yiga qaraydi va uning qonunlariga bo'ysunadi.

Endi Behbudiy talqinidagi uchinchi davlat tuzumi bilan tanishaylik. "Uchunchi qism, - deb yozadi publitsist, - "Idorai jumhuriyat"durki, aksar fuqarosi ahli ilm bo'lub, bu ahli donish aholini saylagan vakillari ba'zi hukumatg'a yetti yilg'acha o'z mamlakat va hukumatlarini boshqarmog'i uchun o'z arolaridan bir nafar donishmand odamni boshliq saylaydurlarki, "raisi jumhuriyat", "sadrinishini millat", "prezident" ataladur. Har bir hukm va amr va tartibni mamlakat va ko'bg'a taalluqli ishni "Millat majlisi"ni qilib bergan dasturulamal, ya'ni qonun va nizomnomalarig'a muvofiq qilib, butun elg'a tobe' bir kishidur. Har bir ishg'a "millat majlisi" hukmig'a tobe', alarni hukmu talablarini o'rnig'a keltirguvchidur. Bu ikki toifani podshohi ba'zi mamlakatga "Elga tobe bo'lub turarman", deb qasam ichib, ba'd mansabg'a chiqadur" (244-bet).

Yevropa mamlakatlaridagi davlat tuzumini Behbudiy ana shu tarzda uch guruhga ajratadi va ularning farqlovchi xususiyatlarini shunday so'zlar bilan tavsiflab beradi. U bu davlat tuzumlari o'rtasidagi farqni ham shu davlatlar tasarrufidagi istiqomat qiluvchi xalqning ilmi-ilmsizligi, ma'rifatli-ma'rifatsizligi bilan bog'laydi. Xalq qanday madaniyat va ma'rifat bosqichiga ko'tarilgan bo'lsa, uni idora etayotgan siyosiy tuzumning ham shu xalq darajasini aks ettirishi mumkinligiga e'tiborini qaratadi.

Demak, Behbudiy nazarida Yevropa mamlakatlarida uch xil davlat tuzumi barpo etilgan bo'lib, bular: monarxiya, parlamentar respublika va respublika idora usullaridir.

Behbudiy xuddi shu yili "Xurshid" gazetasining 6-sonida e'lon qilingan "Xayrul umuri avsatuh" nomli maqolasida Rossiyada siyosiy faoliyat yurgizayotgan partiyalar va ularning dasturulamlarini ham sinchiklab o'rganganini namoyish etgan edi. Uning

kuzatishiga ko'ra, o'sha paytda amalda bo'lgan Rossiyadagi to'rtta partiya quyidagilar edi:

1. Mustabid firqasi (hukumat partiyasi).
2. Mashrutai avomiya (kadetlar partiyasi).
3. Ishtirokiyun ommaviyun (sotsial-demokratlar partiyasi).
4. Rusiya musulmonlari ittifoqi.

Ushbu to'rt partiyaning so'nggisi 1906-yil 13-23-yanvar kunlari Rossiya musulmonlarining Peterburgda bo'lib o'tgan II qurultoyida tuzilgan.

Agar to'rt partiyadan dastlabki ikkisining Yevropadagi davlat tuzumlaridan monarxiya va parlamentar respublikaga ruhan yaqin ekanligini, ayniqsa, yetakchi partiyaning mustabid partiyasi deb atalganini inobatga olsak, Behbudiyning chor hukumati va uning yetakchi partiyasiga bo'lgan munosabati ayniqsa oydinlashadi. Shuningdek, uning kelajakda Rusiya musulmonlari ittifoqiga katta umid bilan qaragani ma'lum bo'ladi.

Sharustam SOMUSAROV,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – ARAB TADQIQOTLARIDA

Keyingi yillarda Respublikamizda olib borilayotgan keng iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar o'tgan tariximizning ochilmagan sahifalarini keng jamoatchilikka ochishga katta imkoniyatlar berayotir. Ayniqsa, jadidlar harakati, ularning namoyondalari hayoti, ijodiy merosi va ularni o'rganishga qaratilgan hukumat qarorlari, joylarda o'tayotgan ko'plab to'plandilar buning yorqin aksidir.

Jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli dramaturg, ma'rifatchi, xalqimizning buyuk vakili Mahmudxo'ja Behbudiyni hayoti va ijodi xorijiy, alaxusus, arab ommaviy axborot vositalarida qanday yoritilyapti?

Arab tilidagi ma'lumotlar kontentini tahlil qilganimizda, uchta saytda ma'lumotlar topildi: **birinchisi**, doktor Amin Qosimning

“Behbudiy. XX asr boshidagi Turkiston hayoti “Jadidlar” harakatiga bag‘ishlangan maqolasidir. Unda olim “Jadidlar” harakati, uning mohiyati, ma’rifatparvarlar amalga oshirgan tarixiy ishlari, yozgan asarlari aytib o‘tiladi. Tadqiqotchi ta’kidlashicha, Turkiston XX asr boshi tarixida bu voqealar eng ta’sirli va xalqni kelajakka boshlovchi harakat sifatida baholanadi.

Ikkinchi maqola arab tilidagi “al-Ma’rifa” saytida berilgan. Bu yerda “jadidlar” harakatining XX asr boshi Turkiston hayotida tutgan o‘rni, harakat namoyondalari haqida to‘xtalib, ular o‘zlarini:

- Taraqqiyparvarlar
- Ziyolilar
- Yoshlar,

deb atashganiga alohida urg‘u beradi. Maqola muallifi eng kuchli va bosh jadid sifatida--Mahmudxo‘ja Behbudiyni ko‘rsatadi.

Uchinchi maqola - Misr arab respublikasidagi saytda yoritilgan. Ushbu tadqiqot Toshkent xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, doktor Ahmad Musoga tegishli.

Ilmiy bahs – “Padarkush” va o‘zbek teatri”, deb atalgan. Unda ushbu dramaning o‘zbek madaniyati va ma’rifatidagi o‘rni, ta’siri o‘rganiladi. P’yesa mazmunan oddiy, hajman qisqa uch aktli va to‘rt ko‘rinishli bo‘lishiga qaramay, o‘zbek teatri tarixida birinchi drama sifatida tan olinadi. Shu o‘rinda hurmatli ustozimiz, doktor Ahmad Muso o‘zining besh banddan iborat xulosalarini e’lon qiladi:

1. “Padarkush” – o‘zbek dramaturgiyasida e’tirof etilgan birinchi asar.

2. 14-fevral 1914-yilda Toshkentda “Padarkush” dramasi ko‘rsatilgan kun – o‘zbek dramaturgiyasiga asos solingan kun sifatida nishonlanadi.

3. Bu asar yana bir muhim masala – o‘zbek tilining milliy ko‘rinishini aks ettiradi.

4. Pyesa – xalqni ma’rifatga va taraqqiyotga undovchi asar.

5. “Padarkush”dan keyin o‘zbek dramaturgiyasi asta-sekin rivojlana boshlandi (Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi).

Talqiqimizdan ko‘rinib turibdiki, “Jadid”lar harakati, ularning vakillari hayoti va ijodi masalalari internetdagi arab tilidagi kontentida juda ham yoritilgan. Bunga, avvalo, o‘zimiz, arabshunoslar aybdormiz.

Shu qisqa tahlildan kelib chiqib, biz bu sohadagi ishlarimizni ikki muhim yo‘nalishda olib borishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1. Biz sharqshunoslar tomonidan jadidchilik masalalarini Sharq mamlakatlari internet kontentida e‘lon qilingan materiallarni o‘rganib, unu doimiy tahlil etib borishimiz zarur.

2. Respublika olimlari jadidchilik bo‘yicha amalga oshirgan va qilayotgan ishlarini sharq tillariga tarjima qilib, xorijiy Sharq mamlakatlari internet kontentiga joylab borishimiz shart, deb bilamiz.

Shu o‘rinda yana bir masalani taklif etmoqchi edim: shu paytgacha Sharq mamlakatlarida jadidchilik bo‘yicha o‘rganilgan ishlarni bitta to‘plamga joylab, uni--” Jadidchilik harakatining sharq mamlakatlarida o‘rganilishi”, deb atash lozim bo‘ladi.

Aziz RAJABIY,

*O‘zbekiston davlat san‘at va
madaniyat instituti dotsenti,
“Nihol” Davlat mukofoti sovrindori*

YUNUS RAJABIY - «PADARKUSH» DRAMASINING BASTAKORI

Insoniyatning ming – ming yillik tarixida xilma – xil harakatlar, ta’limot va turli siyosiy oqimlar mavjud bo‘lgan. Albatta, Turkiston ziyolilarining asosiy qismi usuli jadid maktablari ochilishining tarafdori edi. Jadidlar o‘lka istiqboli, millat kelajagi uchun bu maktablarning ahamiyati beqiyos ekanligini xalqqa tushuntirishga, yoshlarni o‘z ortidan ergashtirishga harakat qilishdi. Milliy taraqqiyotga erishish, barkamol insonni tarbiyalash oila va maktabdan boshlanishini yaxshi bilgan jadidlar yangi uslubdagi maktablar ochdilar, vatan tarixini, sharqona tarbiya usullarini, betakror qadriyatlarni o‘zida to‘liq qamrab olgan darsliklar yaratdilar.

Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiyning Peterburg, Moskva va Nijniyda bo‘lib o‘tgan siyosiy tadbirlarda, jumladan, Umumrossiya musulmonlari qurultoylarida ishtirok etganligi uning adabiy – ma’rifiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb

etdi. Jadidlar xalqaro miqyosda tanila boshladilar. Ularning siyosiy dasturlarida ma'rifatning nafaqat xalq manaviyati, ijtimoiy ongining o'sishi hamda bilimining boyishida, balki millat va yurt taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ustuvor masalaga aylandi.

Maktab va ta'lim tizimini isloh etish uchun avvalo ibtidoiy maktablar masalasida bir fikrga kelish zarur edi..Mahmudxo'ja Behbudiy maktabni millat istiqbolining asosiy quvvatini shakllantiruvchi ma'rifat o'chog'i deb bildi. Maktablar yangilanishi bilan, millat o'zligiga qaytishiga, uning qonida, ongu – shuurida Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Ibn Sino, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Hazrat Navoiy, Mirzo Bobur kabi allomalardan meros aql – zakovat uyg'onishiga ishonidilar. Iste'dodli ijodkor, millat istiqboli qayg'usida bo'lgan Behbudiy ma'naviyat fidoyisi sifatida yoshlarni ilm olishga da'vat qilar ekan, bu maqsadlar amalga oshishi uchun ota – onalar yakdillikda hissa qo'shishi kerakligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Behbudiy o'zining "Oyina" jurnali, "Samarqand" gazetasida bosilgan maqolalarida ham ma'rifatli oila g'oyasini ilgari suradi.

Bolaga mustaqil fikrni, ijodiy erkinlikni, iste'dodni ma'rifatli oila beradi. Behbudiyning mashhur "Padarkush" asari faqat o'zbek dramaturgiyasining ilk qaldirg'ochi sifatidagina emas, balki bir oilaning fojiasi qalamga olinganligi bilan ham jamoatchilikning e'tiborini tortadi. Ota – onalar bilan bolalar o'rtasidagi g'oyat jiddiy, nozik, qaltis munosabatlar, ziddiyatlar, turlicha yondashuvlar ta'lim – tarbiyaning dolzarb masalasi tarzida talqin etiladi. Drama mavzusi millatning qalbiga chuqur iztirob soladi. Tarbiyasiz bola nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham og'ir muammodir. Tarbiyasizlikning oxiri halokatga olib borishini ishonchli lavhalarda tasvirlaydi.

"Padarkush" dramasiga kuy bastalagan Yunus Rajabiyning ijrochilik, tashkilotchilik, bastakorlik va folklorchilik faoliyati bilan o'zbek madaniyati va san'atining tarixi bir-biriga chambarchas bog'langandir. Yunus Rajabiy o'tgan asr 20 - yillaridan boshlangan faoliyatini, qobiliyati, kuch va qudratini o'zbek xalq musiqasi, ijrochilik madaniyati va san'ati rivojiga milliy musiqa ijodining targ'ib qilishga qaratdi. Bastakor zamonamiz musiqa san'ati yo'lidan dadil qadam tashlagan xalq musiqa sohiblaridan hisoblanadi. U O'zbekistonda yangi o'zbek musiqa san'atining rivojlanishi bosqichlarini birma-bir bosib o'tdi.

Buyuk san'atkor O'zbekistonda musiqali drama janrining yuzaga kelishida ishtirok etib, qobiliyatli tashkilotchi, murabbiy va ijrochi sifatida tanildi. Uning ijrochilik san'atida milliy musiqaning mazmunini tubdan rivoj toptirib ochishga qaratilgan ilg'or o'zbek xalq ijrochilarining eng yaxshi fazilatlarini: realizm, samimiy, dilkash lirizm, jasorat va yuksak nolakorlik, yoqimlilik mahorati mujassamlashdi.

Yunus Rajabiy uchun o'zbek xalq musiqa ijodi va bu ijodning progressiv an'analari doim asosiy ilhom manbai bo'ldi. Bastakor izlanishlarning dadil va san'atning yuksak gumanistik yo'llaridan bordi. Uning ashulalari, qo'shiqlari, cholg'u kuylari, sahna uchun bastalagan kuylari, xalq musiqasi to'plamlari ko'pmillatli O'zbekiston musiqa madaniyatining boy xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladi. Yuksak milliylik, hayotni haqqoniy tasvirlash, shuningdek, zamondoshlarimizning haqiqiy obrazlarini ochib berish- Yunus Rajabiy asarlari uchun xarakterli xususiyat bo'lib, ular o'zining ohanglarga boy va yorqin melodik shakli, kuy tuzilishining mukammalligi va boshqa fazilatlarini izchil davom ettirdi.

Yunus Rajabiy butun hayoti davomida ijtimoiy hayotning muhim voqea – hodisalarini o'z ijodida aks ettirishga intildi. Mana shu sababdan ham, u yaratgan asarlarning hammasi qadimiy an'analarni saqlagan holda davr nafasi bilan sug'orilganligi uchun xalq qalbidan joy olgan.

Yunus Rajabiy doimo zamon bilan birga bordi, xalqning yangi hayot uchun kurashida u bilan birga bo'ldi va unga xizmat qildi. Xalq musiqa boyliklariga asoslanib ajoyib o'lmas musiqa asarlarini yaratdi.

Uning o'tmish merosga bu xilda munosabatda bo'lishi hayotni yaxshi o'rganib, yangi turmush voqealari rivojlanishini to'g'ri idrok qilishi va buni zargarona tasvirlay olishi ayniqsa "Padarkush" dramasida yorqin namoyon bo'ladi. Bir ovoqli, shakl jihatidan sodda, ta'sirchan va jozibador musiqalari tomoshabinni o'ziga rom qildi.

Yangi hayot, yangi madaniyat, yangi musiqa ma'rifati, ta'limi tarafdori bo'lgan Yunus Rajabiy madaniyat taraqqiyotiga beparvo qarab turmadi. O'zbek xalq musiqasi ziyolilarining birinchilari qatorida Samarqand bilim yurtida, Toshkentdagi «Namuna», «Uchqun» maktabida, O'zbekiston radiosi, O'zbek Davlat Filarmoniyasida, teatrlarda muhim ta'lim va tarbiya ishlarini olib bordi.

Har bir bastakorning dramatik asarlarga musiqa mavzulari tanlashi uchun tayyorgarligi, bilimi, tajribasi, go'zal, benazir ijrochi,

repertuarining boyligi, qiziqishi kabi fazilatlar muhim rol o'ynaydi. Yunus Rajabiy bu muhim masalani hal qilishda yetarli tayyorgarlik va malakaga ega ekanligi yaqqol sezilib turadi.

XX asr boshida Mahmudxo'ja Behbudiy rahnamolik qilgan Turkiston jadidlari millat tarixini anglash va yoshlarga anglatish, madaniy merosni, ulug' ajdodlarni, milliy qadriyatlarni bilish va idrok etish, millat ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirish masalalarida insoniyat tafakkur tarzini o'zgartirishga qodir, butunlay yangicha g'oyalarni ilgari surdilar. Oradan 100 yildan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa-da, bu g'oyalar o'zining qiymatini yo'qotgani yo'q.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" dramasi bilan yoshlarni ilm olishga, ko'p kitob o'qishga, xorijiy tillarni o'rganishga va ilmiy fikrlashga undar ekan, bu xususiyatlar milliy ozodlik va mustaqil davlat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishini qayta-qayta ta'kidlaydilar.

Bastakorlik faoliyati ellik yildan ortiq davom etgan Yunus Rajabiy o'zbek xalq musiqa ijodining bitmas-tuganmas merosidan chetlanmadi, balki undan poetik ilhomlandi, ularni o'zlashtirdi, bora-bora shu merosning organik qismiga aylangan individual ijod uslubini yaratishga erishdi. O'zbek maqomining ta'siri dunyoda tengsiz ekanligini angladi va dunyoga anglatdi.

O'zbek xalq musiqa ohanglarining xususiyatlarini chuqur bilganligi va ularni shogirdlariga bekam-ko'st nolalari bilan o'rgatgani tufayli ham o'zbek xalqi orasida, musiqa namoyandalari, ayniqsa, san'atkor yoshlar, musiqa namoyandalari orasida ham samimiy hurmat va e'tibor qozongan edi. Buyuk ma'rifatparvar jadidlarning, ulug' san'atkorlarning hamkorlikda yaratgan asarlari mustaqillik sharoitida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri S.Doniyorovning savollariga javoblari. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. "Yangi O'zbekiston" gaz. 2021yil, 17 avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrigi. uza. uz 27. 06. 2020y.

3. Alimova D. Jadidchilik : islohot, yangilanish mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. “Universitet”, T. 1999 yil.
4. Behbudiy Tanlangan asarlar. “Ma’naviyat”, T. 1997. 72-b.
5. Sh. Rizaev “Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash”, T. 1999., 4-b.
6. R. Sharipov, Jadid adabiyotida yangilanish, islohot va mustaqillik uchun kurash. T., 2005. 89-b.
7. B. Qosimov. Maslakdoshlar. T., 1994. 17-b.
8. Zohidov V. Xazina.//” O‘zbekiston madaniyati”, 1967 yil, 2 sentabr.
9. Rajabiy Yu.O‘zbek xalq musiqasi. 1-j.T.:1955.
10. Rajabiy Yu. O‘zbek xalq musiqasi.2-j.T.:1957.
11. Rajabiy Yu. O‘zbek xalq musiqasi.2-j.T.:1958.
12. Akbarov I.Yunus Rajabiy.M.:1982.
13. G‘ofurbekov T. XX asr o‘zbek musiqasi va Yunus Rajabiy.T.:1997.
14. Qo‘shjonov M. She’r hofiz talqinida.. “Guliston” jurnali, 1997 yil, 1 – son.
15. Nisshe F. Rojdenie tragedii iz duxa muzyki. Polnoe sobranie sochineniy.: v 23 t. T.4. M.: izd.instituta filosofii RAN, 2014.
16. Rajabiynoma. T.: Art –Press, 2016.

MUNDARIJA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori professor Gulchehra Shavkatovna Rixsiyevaning kirish soʻzi		3
Shuxrat Rizaev	“Padarkush” pesasi va Samarqandda teatrchilik harakati	5
Minhojiddin Mirzo	Mahmudxoʻja Behbudiy merosi va jadidlar harakatida ilm-fan, taʼlim va tarbiya masalalari	12
Bahodir Karimov	Behbudiy maʼrifati	16
Hulkar Hamroeva	Mahmudxoʻja Behbudiy: umumbashariy taraqqiyot tamoyillari va yoshlar maʼnaviyati	20
Abdulla Ulugʻov	Turkiston ayanchli ahvoli	26
Marhabo Qoʻchqorova	Istiqlol davri adabiyotshunosligida Mahmudxoʻja Behbudiy hayoti va ijodining oʻrganilishi	35
Rustam Sharipov	Mahmudxoʻja Behbudiyning siyosiy-huquqiy qarashlari	53
Rustam Sharipov	Mahmudxoʻja Behbudiyning siyosiy publitsistikasi	62
Shorustam Shomusarov	Mahmudxoʻja Behbudiy – arab tadqiqotlarida	69
Aziz Rajabiy	Yunus Rajabiy – “Padarkush” dramasining bastakori	71